Respublikaning yangi Konstitusiyasini ishlab-chiqish zurligi to'g'risidagi goya XII chaqiriq Oliy Kengashning 1990 yil martida bo'lib o'tgan birinchi sessiyasidayok yangragan edi. Oliy Kengashning 1990 yil iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasi respublikaning birinchi Prezidenti I.A.Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitusiya komissiyasini tashkil etdi. Komissiya tarkibiga viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi vakillari, xo'jaliklar, korxonalarining rahbarlari, davlat va jamoat idoralari rahbarlari, olimlar va xalq xujaligi mutaxassislari kirdi.

1991 yil 12 aprelda I.A.Karimov boshchiligida Konstitusiya komissiyasining birinchi majlisi bo'lib o'tdi. Konstitusiya loyixasini ishlab chiqishga tayyorgarlik soxasidagi butun ishni markazlashtirib turish maqsadida Konstitusiya komissiyasi a'zolaridan xamda tanikli olimlar va mutaxassislardan 32 kishidan iborat ishchi guruxi tuzildi. Uning tarkibiga Oliy Kengashning kator kumitalarining, vazirliklar, proko'ratura, sud organlarining rahbarlari, olimlar, Respublika Prezidenti devoni va Oliy Kengash idorasining mas'ul xodimlari kirdilar.

Konstitusiya komissiyasining raisi ishchi guruxi oldiga anik vazifa kuydi: jaxon tajribasi urganilsin, boshqa mamlakatlarning inson huquqlari borasida, demokratiya va qonunchilik soxasida kulga kiritgan yutuklari asosida tushunarli siyosiy va yuridik xujjat yaratilsin.

Konstitusiya bu muxobatli asar, butun qonunchilikning umurtka poganasi. qanday bo'lishi lozimligini oldindan bilmay turib, uning Konstitusiya komissiyasining topshirigiga binoan, ishchi guruxi, eng avvalo bulajak Konstitusiyaning konsepsiyasini ishlab chiqishga kirishdi. Uchta konsepsiya tayyorlandi.

Falsafa va huquq institutining konsepsiyasi (u Fanlar akademiyasi rayosati tomonidan muxokama qilindi va tasdiqlandi). Siyosatshunoslik instituti konsepsiyasi va Prezident devonining davlat shubasi tayyorlagan konsepsiya. Ishchi komissiyasining bir gurux a'zolari bu konsepsiyalarning goyalarini umumlashtirib, ulardan bitta asos ishlab chikdilar. Sungra Konstitusiya komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan ana shu konsepsiya asosida ish boshlab yuborildi.

Loyixaning 158 moddadan iborat dastlabki varianti 1991 yil noyabrgacha tayyorlab berildi. I.A.Karimov bu loyixa bilan tanishib chikib, kam ish qilinganligi to'g'risida gapirdi va yo'llanma berib, bulgusi loyixaning shakl-tamoyillariga oydinlik kiritib berdi.

Loyixaning ikkinchi ishchi varianti 149-moddadan iborat buldi. Respublika Prezidenti yana kuliga kalam olib, matnni yaxshilab ko'rib chikdi. Shu tarika Konstitutsiya komissiya raisining nigoxidan utgach, loyixa lunda va ifodali bo'lib bordi.

Uchinchi qilingan variant 137-moddani tashkil kilar edi. Matbuotda e'lon qilinishi oldidan yana bir bor diqqat bilan urganilib, 127-moddadan iborat tartibda, mazmundor qilib tuzildi. Konstitutsiya komissiyasining karori bilan loyixa 1992 yil 26 sentyabrda umumxalq muxokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyixasining muxokamasi barcha mexnat jamoalarida, korxonalar, ukuv yurtlarida, idoralar va vazirliklarda, tumanlar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi faollarining yigilishlarida, matbuotda, televideniye va radioda, xalq demokratik partiyasining Markaziy Kengashlari va maxalliy tashkilotlarda, kasaba uyushmalari xamda xotin-kizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlarida, ijodiy uyushmalarda, olimlarning birlashmalarida va boshqa tashkilotlarda bo'lib utdi.

Konstitutsiya komissiyasiga kelgan fikrlar, taklif va muloxazalarni xisobga olgan xolda muxokamani davom ettirish uchun 1992 yil 21 noyabrda yana bir bor matbuotda e'lon qilindi. Respublika fuqarolari loyixaga kiritilgan o'zgartirishlar va anikliklar bilan tanishish imkoniyatiga ega buldilar.

«Yangi Konstitutsiyamizning ijobiy jixatlari, ya'ni tomonlari, avvalgi Konstitutsiyalardan farq lari nimalardan iborat?» Avvalombor bu Konstitutsiya o'zining tub moxiyati falsafasi, goyasiga ko'ra yangi xujjatdir. Unda kommunistik mafko'ra, sinfiylik, partiyaviylikdan asar xam yuk. Jamiyki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulugi- inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosida «fuqaro-jamiyat-davlat» o'rtasidagi o'zaro munosabatlar okimida huquqiy yechimni topishga intildik.

Loyixa inson huquqlari va davlat mustaqilligi goyalariga sodokat, xozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglash, o'zbek davlatchiligining tajribasiga tayanish, demokratiya va qonuniylikni xurmatlash, xalqaro huquqning jaxonda e'tirof etilgan qoidalarini tan olish, O'zbekiston fuqarolarining munosib xayot kechirishlarini ta'minlash, insonparvar huquqiy jamiyat barpo etish va nixoyat, fuqarolar tinchligi va milliy xamjixatlikni kafolatlash kabi olijanob maqsadlarni kO'zladi" <sup>1</sup>

Shunday qilib, Konstitutsiya loyixasi matbuotda ikki marta e'lon qilindi va umumxalq muxokamasidan utdi. Buning yakunlari bo'yicha komissiya yana bir bor loyixani ko'rib chikib Oliy

Kengash sessiyasida ko‘rib chiqishga tavsiya etdi. Loyixa Oliy Kengashning sessiyasida moddama-modda muxokama qilinib Uzoq tortishuvlar, xilma-xil fikrlar bildirilgan xolda qabul qilindi.

«Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obru-e‘tibori uning Konstitusiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitusiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Krmusnomadir. Shu ma‘noda asosiy qonunimiz xalqimizning irodasini, ruuiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Chunki uni ishlab chisish va muuokama etishda butun xalq ishtirok etdi. Bir so‘z bilan aytganda, Konstitusiyamiz tom ma‘noda xalqimiz tafakkuri va ijodining mausulidir».<sup>2</sup>

Asosiy qonunimizni baxolashda AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Xavfsizlik va xamkorlik Kengashi kabi nufuzli davlat va xalqaro tashkilotlarning olimlari faol katnashdilar. Lekin xech kim, xattoki, bizni xush kurmaydigan kishilar xam uning demokratik moxiyatini inkor eta olmadi.

O‘zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni o‘zining tuzilishi, mazmuni jixatidan O‘zbekiston tarixida amal qilib kelgan Konstitusiyalardan tubdan farq qiladi. 1990 yil 20 iyunda xali Sobik Ittifoki mavjud bo‘lgan davrda, O‘zbekiston o‘z Mustaqilligini dunyoga ma‘lum qilib, Konstitusiyaviy isloxlarni boshlab yuborgan edi. 1978 yilgi O‘zSSR Konstitusiyasiga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritildi. Chunki, bu qonun zamon talablariga javob bermay kolgan edi Respublikaning yangicha yashashga bo‘lgan xoxishini bugib, turar edi. Uta mafko‘ralashgan bu Konstitusiyaga vaqtincha kushimcha va o‘zgartirishlar kiritilib, yangi Asosiy qonun loyixasini yaratishga kirishildi. Bu jarayon ya‘ni uning loyixasi ustida ikki yil davomida ishladik, degan, edi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "U ikki yarim oy mobaynida umumxalq muxokamasidan utdi, xalqning fikr xazinasini durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi»

1992 yil 8 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XI sessiyasida qabul qilingan Konstitusiyasi mustaqil O‘zbekiston demokratik suveren davlatining birinchi Konstitusiyasi buldi, mustaqil davlat omillaridan kelib chikib yaratilganligi bu Konstitusiyaning o‘ziga xos xususiyati deb xisoblash lozim. Dastlabki, moddasidan tortib to oxirgi 128 moddasigacha u mustaqillik goyasi bilan sugorilgan.<sup>2</sup>

«Biz sunggi yetmish yil ichida davlatga karamlik va siginish xolatida yashadik, mamlakatning undagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat deb xisoblab keldik. Ana shu masalada xam Konstitusiyada tub burilish yasalgan. Ya‘ni «davlat uning idoralari va mansabdor shaxslar jamiyat xamda fuqarolar oldida mas‘uldirlar». Sobik totalitar davlat sharoitida bunday fikrni xech kim xayoliga xam keltira olmasdi. Endilikda inson, uning xayoti, erki, sha‘ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquq xamda erkinliklari mukaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi»

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi birinchi huquqiy qadam – o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishidir. Bu haqda gap borganda, avvalambor, 1989 yilning 21 oktabr kuni qizg‘in bahs va

---

<sup>2</sup> Ш.З.Уразаев: Мустаеил Ўзбекистон Конституцияси Т., «Адолат» 1994, 32-бет.

tortishuvlardan so‘ng siyosiy-ma‘naviy hayotimizdagi unutilmas hodisa amalga oshirilgani – milliy qadriyatlarimizning asosiy ustunlaridan biri bo‘lgan ona tilimizga davlat tili maqomi berilgani istiqlol tarixining eng yorqin sahifalaridan birini tashkil etishini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Shunday qilib dastavval, “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunda mustahkamlangan muhim huquqiy qoidalar endilikda Asosiy Qonunimizning 4-moddasida quyidagicha muhrlab qo‘yildi:

“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi ikkinchi huquqiy qadam – Prezidentlik instituti ta‘sis etilishi va yangi davlat ramzlarini tayyorlash bo‘yicha komissiya tuzilishi bilan bog‘liq.

Yurtimiz hayotidagi bu g‘oyat muhim va hayajonli voqealar 1990 yilning mart oyida bo‘lib o‘tganini eslash joiz. O‘shanda, ya‘ni Mustaqilligimiz e‘lon qilinishidan bir muncha vaqt oldin, o‘n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasida sobiq ittifoq tarkibidagi respublikamizda Prezidentlik lavozimi joriy etildi, davlat ramzlari haqidagi masala muhokama qilinib, bu borada maxsus komissiya tuzildi. Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi ilk bor ana shu sessiyada ilgari surildi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi uchinchi huquqiy qadam –“Mustaqillik deklaratsiyasi”ning e‘lon qilinishidir. O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990 yil 20 iyunda e‘lon qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning 8-bandida O‘zbekiston “o‘zining taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o‘zi ta‘sis etadi” degan qoida mustahkamlangan. Deklaratsiyaning 12-bandida esa ushbu hujjat respublikaning “yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos” bo‘lishi qayd etilgan. O‘shanda bunday mazmundagi hujjat sobiq ittifoq hududida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda qabul qilingan edi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi to‘rtinchi huquqiy qadam –Konstitutsiyaviy komissiyaning tashkil etilishiga borib taqaladi. Oliy Kengash qarori bilan 1990 yil 21 iyun kuni 64 nafar a‘zoni o‘zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi va Konstitutsiya loyihasi ana shu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlandi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi beshinchi huquqiy qadam – Birinchi Prezidentimizning Hindistonga 1991 yilgi tashrifi bilan chambarchas bog‘liq. Aytish kerakki, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1991 yil 17-19 avgust kunlari “Hindiston Respublikasiga rasmiy tashrifi O‘zbekiston Prezidentining xorijga qilgan birinchi mustaqil – tarixiy tashrifi edi”. Yurtboshimiz Hindistonda bo‘lgan bir paytda – 19 avgust kuni o‘zini “Davlat favqulodda holat qo‘mitasi”, ya‘ni GKChP deb atagan bir guruh siyosiy avantyurist larning davlat to‘ntarishini sodir etishga qaratilgan murojaati e‘lon qilindi.

Afsuski, O‘zbekiston rahbarining safarda ekanidan foydalanib, GKChPning noqonuniy qarorlarini qo‘llab-quvvatlaydigan rahbarlar yurtimizda ham topildi. Bu voqealarning davomi “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobining so‘zboshi qismida shunday bayon etilgan: “Prezident Islom Karimov GKChP e‘lon qilinganini Agrada eshitib, 19 avgust kuni zudlik bilan Toshkentga qaytadi.

Toshkent aeroportida Yurtboshimizni rasmiy kishilardan tashqari, Turkiston harbiy okrugi bosh qo‘mondoni hamda Markazdan kelgan 3 nafar general kutib oladi. Bu o‘sha paytdagi mavjud rasmiy protokol qoidalariga mutlaqo zid bo‘lib, tagdor siyosiy ma‘noga ega edi. Islom Karimov aeroportdan to‘g‘ri hukumat binosiga kelib, kechqurun hukumat a‘zolari bilan uchrashdi hamda O‘zbekiston SSR hududida GKChPning qonunga zid qarorlarini bekor qilish haqida ko‘rsatma berdi.

Shu tariqa GKChP gumashtalari O‘zbekiston hukumati nomidan qabul qilgan barcha hujjatlarni bekor qildi”.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi oltinchi huquqiy qadam – Davlat mustaqilligining e‘lon qilinishidir. Mamlakatimiz rahbarining 1991 yil 31 avgustda, o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida so‘zlagan nutqi, ayniqsa, o‘sha nutqdagi: “Men shu bugundan e‘tiboran 1 sentabrni respublikamizda Mustaqillik kuni, umumxalq bayrami deb e‘lon qilishni taklif etaman”.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi yettinchi huquqiy qadam – 1991 yil 29 dekabrda Prezident saylovi va Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi referendumning o‘tkazilishiga taalluqli. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va Respublika davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi referendum 1991 yil 29 dekabrda bo‘lib o‘tdi.

Xalq davlat mustaqilligini qo‘llab ovoz berdi va Prezidentni sayladi. 1992 yil 4 yanvar kuni Oliy Kengashning ana shu saylov va referendum yakunlariga bag‘ishlangan to‘qqizinchi sessiyasi ochildi. So‘ngra Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishish tantanali marosimi bo‘ldi. Ushbu sessiyada O‘zbekistonning o‘sha paytda amalda bo‘lgan Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to‘g‘risida qonun qabul qilindi.

Konstitutsiyani yaratish yo‘lidagi sakkizinchi huquqiy qadam – birinchi Konstitutsiya loyihasining ilk bor matbuotda umumxalq muhokamasi uchun e‘lon qilinishidir. Konstitutsiyaviy komissiya bajarilgan ishni ma‘qulladi va 1992 yil 8 sentabrda Konstitutsiya loyihasini umumxalq muhokamasi uchun e‘lon qilishga qaror qildi.

Ushbu yig‘ilishda loyihani oxiriga yetkazish va tahrir qilish uchun ishchi guruh tuzildi. Yangi Konstitutsiyaning birinchi loyihasi 1992 yil 26 sentabr kuni tayyor bo‘ldi va shu kuni matbuotda chop etildi. Loyiha e‘lon qilingach, uning umumxalq muhokamasi juda keng tus oldi. Bu ochiq-oshkora muhokamalar 1992 yilning sentabr oyi oxiridan dekabr oyi boshlarigacha o‘tdi. Konstitutsiyaviy

komissiyaga fikr-mulohazalar bildirilgan 600 taga yaqin xat kelib tushdi. Respublika matbuotining o'zida Konstitutsiya loyihasiga bag'ishlangan yuzdan ortiq materiallar e'lon qilindi. Fuqarolarimiz bildirgan takliflar soni 5 mingdan oshib ketdi.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi to'qqizinchi huquqiy qadam – Konstitutsiya loyihasining ikkinchi marta matbuotda umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilinishidir. Konstitutsiya loyihasi o'tkazilgan muokamalar davomida kelib tushgan takliflar asosida ancha tuzatildi va qayta ishlandi. So'ngra, 1992 yil 21 noyabrda umumxalq muhokamasini davom ettirish uchun Konstitutsiya loyihasi ikkinchi marta gazetalarda chop etildi.

Shunday qilib, huquqiy pretsedent – ikki bosqichli umumxalq muhokamasi yuz berdi. Ushbu holat, bir tomondan, muhokama ishtirokchilarini faollashtirish uchun qudratli rag'bat vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Asosiy Qonunimizning xalqchilligini ta'minladi. Konstitutsiya loyihasining o'zi keng jamoatchilik ekspertizasidan o'tdi. Mazkur aksiyaning, ya'ni Konstitutsiya loyihasini ikki bosqichda muhokama etish uchun matbuotda e'lon qilinishining ma'nosi shundan iborat ediki, fuqarolar Konstitutsiyaning qayta ishlangan variantida Konstitutsiya loyihasini muhokama qilishdagi o'z ishtiroklarining natijasini ko'ra oldilar.

Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi o'ninchi huquqiy qadam –Konstitutsiya loyihasining qabul qilinishidir. Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan 1992 yil 6 dekabrda Konstitutsiya loyihasi oxirgi marta muhokama etildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Konstitutsiyaviy komissiya xorijiy konstitutsiyaviy tajribaga murojaat qilib, Asosiy Qonunning rolini yaxlit tushunishdan kelib chiqdi. Bunda jahon konstitutsiyaviy tajribasining bir qator ilg'or jihatlari hisobga olindi. Konstitutsiya loyihasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik kengashi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi demokratik davlatlar mutaxassislarining sinchkov ekspertizasidan o'tdi.

Ushbu material chuqur va har tomonlama o'rganib chiqildi, umumlashtirildi va xalqning umumiy irodasi shaklida o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasi muhokamasiga kiritildi. Parlament deputatlari tomonidan loyiha moddama-modda muhokama qilinib, unga yana bir qator o'zgartishlar kiritilgach, 1992 yil 8 dekabr kuni Bosh Qomusimiz qabul qilindi. Shu kundan e'tiboran, 8 dekabr – umumxalq bayrami deb e'lon qilindi.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimiz parlamenti Konstitutsiya normalariga muvofiq 8 ta konstitutsiyaviy qonun, 15 ta kodeks, 600 dan ziyod qonunni qabul qildi, 200 dan ortiq ko'p tomonlama xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi.

***Tayanch so'z iboralar:*** qonun, yaso, tuzuklar, erkinlarning buyuk xartiyasi, inson huquqlari va erkinlari, mustaqillik deklarasiyasi, qonunlar to'plami, so'z erkinligi. nazariya, huquqiy yondashuv.

*Mavzu yuzasidan savol topshiriqlar:*

1. *Konstitutsiya so'zga ta'rif bering?*

2. *Ilk qonunlar qaysi mamlakatlarda vujudg kelgan?*
3. *Temur tuzuklari haqida o'z fikrlaringizni bildiring?*
4. *Konstitutsiyaning jamiyat hayotida tutgan o'rni qanday?*
5. *Amerikadagi ilk konstitutsiyaning paydo bo'lishining tarixiy ahamiyati qanday edi?*
6. *“Qonunlar ruhi” deganda nimani tushunasiz?*

*Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati*

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O'zbekiston". 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyat yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*
5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2018-yil, 29-dekabr.*
6. *2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. - Toshkent: Ma'naviyat, 2017.*
7. *O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Toshkent.: "Adolat". 2010.*

2-MAVZU: KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR HAMDA ULARNING MAZMUN-MOHIIYATI

Reja.

1. *“Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini qabul qilinishi zaruriyati*
2. *Yangi tahrirdagi Konstitutsiya haqidagi prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning bildirgan fikr mulohazalari*
3. *Yangi tahrirdagi Konstitutsiya oldingi Konstitutsiyadan ajralib turadigan jihatlari*
4. *Yangi Konstitutsiyaning jamiyat hayotida tutgan o'rni*

*Darsning o'quv maqsadi: Yangi tahrirdagi o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganish fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, manbalari va huquq va erkinliklari to'g'risida bilimlar tizimini shakllantirish.*

Konstitutsiya har bir davlat taraqqiyotining poydevori bo'lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjat – mamlakatning Asosiy qonuni hisoblanadi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston

Respublikasining Konstitutsiyasi inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, mustaqil demokratik davlatimiz, erkin jamiyatimizning mustahkam huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Fuqarolarning eng muhim orzu-intilishlari va maqsadlari Asosiy qonun – Konstitutsiyada to'liq ifoda etiladi.

Mustaqillik yillarida Konstitutsiya asosida inson qadri ulug'lanadigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida keng qamrovli yangilanishlar va islohotlar amalga oshirildi, bu borada boy tajriba to'plandi.

O'zbekiston bugun o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo'lida dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni to'laqonli amalga oshirish uning maqsadi, ko'lamiga monand va munosib bo'lgan yangi mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, konstitutsiyaviy islohotlar tabiiy rivojlanish natijasi bo'lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun o'ta ahamiyatlidir, adolatli jamiyat qurish yo'lida ulkan qadamdir.

Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha'ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat'iy qoidaga aylantirish, bir so'z bilan aytganda, "Inson qadri uchun" g'oyasini hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo'lgan "Inson – jamiyat – davlat" degan yondashuvni yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining mazmun-mohiyatiga chuqur singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida "Bosh maqsadimiz – har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir", deb ta'kidlagan edi. Shu ma'noda, referendumga chiqarilishidan oldin loyiha misli ko'rilmagan hajmda jamoatchilikning keng qatlamlari tomonidan sinchkovlik bilan muhokamadan o'tkazilganligi, buning natijasida 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushganligi, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ushbu takliflar asosida shakllanganligi yangi tahrirdagi Konstitutsiya tom ma'noda xalq Konstitutsiyasi ekanligidan dalolat beradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi xalq ovoz ber ganidan keyin qo'shimcha hujjatlarsiz yoki tartib-taomillarsiz, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan referendum yakunlari rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi bevosita xalq tomonidan qabul qilinsa, tariximizda to'g'ridan-to'g'ri amalga kiritiladigan birinchi hujjat bo'ladi.

Buning eng ahamiyatli tomoni, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga munosabat bildirilganida barchaning ovozi bir xil maqomga va kuchga ega ekanligidadir. Ya'ni, Konstitutsiya loyihasini muhokama qilish jarayonida fuqaro qaysi kasbda, qanday lavozimda ekanligidan qat'i nazar, har bir insonning tanlovi va fikri ahamiyatli va hal qiluvchi bo'ladi.

Darhaqiqat, Yangi O‘zbekiston sharoitida yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining eng muhim jihatlari inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmat, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta’minlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish bilan bog‘liq o‘zgarishlar bilan muhim ahamiyatga ega. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida huquqiy davlat prinsipini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlar belgilanmoqda.

Davlat faoliyati qonun ustuvorligi asosida amalga oshirilishini ta’minlash uchun Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi hamda uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi belgilanmoqda hamda inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq va Konstitutsiya normalariga muvofiq kafolatlanmoqda.

Bu borada ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida ijtimoiy davlat prinsiplariga oid normalarning yanada mustahkamlanishi, xususan, sifatli ta’lim va tibbiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamni qo‘llab-quvvatlash, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi tizimini yaratish, ishsizlikdan himoyalanih, uy-joyga ega bo‘lishga qaratilgan qoidalar bilan yanada takomillashtirilishi bilan bog‘liqdir.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi, erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog‘lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq yangi qoidalar ham yangi tahrirdagi Asosiy qonunimiz loyihasida belgilanmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasida barchaning – bir tomondan davlat va uning organlari tizimi, ikkinchi tomondan inson, fuqaro va jamiyatning huquq va majburiyatlari aniq va lo‘nda qilib, hamma uchun tushunarli tarzda bayon etilayotganligi O‘zbekistonning yanada barqaror bo‘lishiga va har qanday tahdidlarga qarshi ishonchli qalqon bo‘la olish qobiliyatini mustahkamlashga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, konstitutsiyaviy-huquqiy normalar yordamida inson, jamiyat va davlat xokimyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar tartibga solinadi. Konstitutsiyaviy huquq normalari inson, jamiyat va davlat o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi va ta’minlaydi. Bundagi ustuvor yunalishlarni va oliy kadriyatlarni aniklaydi va konstitutsiyaviy amaliyotni belgilab beradi. Bu oliy kadriyatlarga konstitutsiyaviy institutlar mos bo‘lishi kerak.

**Tayanch so‘z iboralar:** qonun, yaso, tuzuklar, erkinlarning buyuk xartiyasi, inson huquqlari va erkinlari, mustaqillik deklarasiyasi, qonunlar to‘plami, so‘z erkinligi, nazariya, huquqiy yondashuv.

*Mavzu yuzasidan savol topshiriqlar:*

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilishga qanday ehtiyoj sezildi ?
2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya haqidagi prezidentimiz Sh. Mirzoyoyevning bildirgan fikr mulohalazar haqida fikr bildiring?

3. *Yangi tahrirdagi Konstitutsiya oldingi Konsitutsiyadan ajralib turadigan jihatlari haqida so'zlab bering?*
4. *Yangi Konstitutsiyaning jamiyat hayotida tutgan o'rni qanday?*

*Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati*

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O'zbekiston". 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*

### **3-mavzu: O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat**

Mavzu rejasi:

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasida O'zbekiston – huquqiy davlat, deb belgilanishi
2. Konstitutsiyada O'zbekistonni ijtimoiy davlat, deb belgilashning ahamiyati.
3. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining 1-moddasida O'zbekiston – dunyoviy davlat, deb aytilishi

**Huquqiy davlat** – insoniyatning ming yillar mobaynidagi mashaqqatli mehnati evaziga shakllangan taraqqiyot g'oyasi bo'lib, Konstitutsiya va qonun ustuvor bo'lgan, inson huquq va erkinliklari himoya qilingan va amalda ta'minlangan, demokratik prinsiplar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo'lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir. Bugun Yangi O'zbekiston in-sonparvar va xalqchil bo'lgan huquqiy davlat qurish yo'lida odimlamoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda ta'kidlaganidek: "Faqat huquqiy davlat sharoitidagina insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini to'liq ta'minlash, tom ma'noda xalqparvar boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin".

Shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 1-moddasida "O'zbekiston – huquqiy davlat", deb mustahkamlanmoqda. Konstitutsiyada O'zbekiston huquqiy davlat ekanligini alohida belgilash – davlat o'z faoliyatini, jamiyat va fuqarolarning yashash tarzini faqat Konstitutsiya va qonunlar asosidagina amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Pirovardida davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun ustuvorligi asosida xalq manfaatlari uchun ishlaydi, unga xizmat qiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining boshqa normalarida ham huquqiy davlat prinsipini ro'yobga chiqarishga qaratilgan mexanizmlar va kafolatlar mustahkamlanmoqda. Birinchidan, davlat faoliyati qonun ustuvorligi, qonuniylik prinsipi asosida amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi hamda uning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi belgilanmoqda.

Natijada davlat organlari, shu jumladan, sudlar o'z faoliyatida Konstitutsiyaga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilgan holda qarorlar qabul qiladi. Ikkinchidan, inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq va Konstitutsiya normalariga muvofiq kafolatlanmoqda, ular qonunchilik va davlat organlari faoliyatining mazmunini belgilashi mustahkamlanmoqda.

Shuningdek, insonga nisbatan davlatning huquqiy ta'sir choralari qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi shartligi va inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi mustahkamlanmoqda.

Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Turkiya konstitutsiyalarida o'z davlatini huquqiy davlat deb belgilashga oid normalar mustahkamlangan.

Mazkur yangilik barchaning qonun oldida tengligini va qonundan hech kim ustun emasligini ta'minlash, insonlar ongiga qonunlarga hurmat va itoat etib yashash lozimligini singdirish, umuman olganda, davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi uchun mustahkam huquqiy asos bo'ladi. Shuningdek, O'zbekistonning "Huquq ustuvorligi indeksi", "Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi" kabi xalqaro nufuzli reytinglarda o'rni yaxshilanishiga imkon beradi.

**2. Ijtimoiy davlat** -har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda "Asosiy qonunimizda "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan tamoyilni mustahkamlashni taklif etaman. Chunki "inson qadri" tushunchasi "ijtimoiy davlat" ulug'lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassamdir" deb ta'kidlagan edi.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 1-moddasida "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" tamoyili mustahkamlanmoqda. Bu borada ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida ijtimoiy davlat prinsiplariga oid normalarning yanada mustahkamlanishi, xususan, sifatli ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamni qo'llab- quvvatlash, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi tizimini yaratish, ishsizlikdan himoyalanih, uy-joyga ega bo'lishga qaratilgan qoidalar bilan yanada takomillashtirilishi bilan bog'liqdir.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi, erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sogʻlom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini taʼminlash, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash bilan bogʻliq yangi qoidalar ham yangi tahrirdagi Asosiy qonunimiz loyihasida belgilanmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasida barchaning – bir tomondan davlat va uning organlari tizimi, ikkinchi tomondan inson, fuqaro va jamiyatning huquq va majburiyatlari aniq va loʻnda qilib, hamma uchun tushunarli tarzda bayon etilayotganligi Oʻzbekistonning yanada barqaror boʻlishiga va har qanday tahdidlarga qarshi ishonchli qalqon boʻla olish qobiliyatini mustahkamlashga asos boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasining oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, konstitutsiyaviy-huquqiy normalar yordamida inson, jamiyat va davlat xokimyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar tartibga solinadi. Konstitutsiyaviy huquq normalari inson, jamiyat va davlat oʻrtasida oʻzaro munosabatlarni tartibga soladi va taʼminlaydi. Bunday ustuvor yunalishlarni va oliy kadriyatlarni aniklaydi va konstitutsiyaviy amaliyotni belgilab beradi. Bu oliy kadriyatlarga konstitutsiyaviy institutlar mos boʻlishi kerak.

Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bogʻliq normalar 3 barobarga koʻpaytirilib, ijtimoiy davlat modelini amalga oshirish mexanizmlari belgilanmoqda.

Birinchi, Konstitutsiyamizda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan taʼminlash boʻyicha davlatning majburiyatlari, mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini taʼminlash hisobga olinishi alohida belgilanmoqda.

Ikkinchi, davlat fuqarolarning bandligini taʼminlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha majburiyatlari Konstitutsiya normasi darajasida mustahkamlanmoqda.

Uchinchi, fuqarolarning kafolatlangan tibbiy yordamga boʻlgan huquqlari belgilanmoqda va davlatning taʼlimning barcha shakllariga gʻamxoʻrlik qilishi, inklyuziv taʼlimni taʼminlashi, oʻqituvchining maqomiga oid normalar mustahkamlanmoqda.

Toʻrtinchi, ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi sifatida barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi boʻlgan shaxslarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga oid yangi qoidalar oʻrnatilmoqda. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy davlat tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan yangi vazifa va vakolatlari belgilanmoqda.

Umuman olganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida davlatning ijtimoiy majburiyatlari uch baravardan ortiqqa koʻpaymoqda. Ijtimoiy davlat prinsiplari Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Xorvatiya, Turkiya va boshqa bir qator davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Oʻzbekistonni ijtimoiy davlat deb belgilash – taʼlim, sogʻliqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, ayniqsa, ijtimoiy himoyalangan yoki ehtiyojmand qatlamni qoʻllab-quvvatlash orqali ularga munosib turmush sharoitini yaratishga xizmat qiladi.

**3. Dunyoviy davlat** – diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan, davlat boshqaruvi diniy qoidalar bilan emas, Konstitutsiya va qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadigan davlat hisoblanadi. Dunyoviy davlat vijdon va e'tiqod erkinligining mavjudligi, davlatning jamiyat hayotida fuqarolar tomonidan e'tiqod qilinayotgan dinlarga teng va birdek betaraf munosabatda bo'lishi hamda hech qaysi dinning davlat dini sifatida o'rnatilmasligi bilan tavsiflanadi.

Dunyoviy davlat fuqarolarga ta'lim olish, shaxsiy rivojlanish yo'lini mustaqil tanlash imkoniyatini yaratish hamda ilm-fan va madaniy taraqqiyotda ijodiy erkinlikni ta'minlashni ko'zda tutadi.

Dunyoviy davlatda din davlatdan va siyosatdan ajratilsa-da, jamiyatdan ajratilmaydi, balki insonlarning ma'naviy va ruhiy kamolotga erishishining omili bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, dunyoviylik – dahriylik emasdir, ayni paytda dunyoviy davlat dahriylikka targ'ib etuvchi davlat ekanligini anglatmaydi. Aksincha, dunyoviy davlatda barcha uchun vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi ta'minlanadi, turli din vakillariga teng imkoniyat yaratib beriladi hamda diniy e'tiqodni chuqur hurmat qilgan holda, dunyoviy taraqqiyot yo'lidan boriladi.

Eng muhimi, dunyoviy davlat barcha dinlar uchun nafaqat teng sharoitlar yaratib berishni, balki fuqarolarga ta'lim olish, shaxsiy rivojlanish yo'lini mustaqil tanlash imkoniyatini yaratish hamda ilm-fan va madaniy taraqqiyotda ijodiy erkinlikni ta'minlashni ko'zda tutadi. Umumiy ma'noda davlat dunyoviy davlatda diniy masalalarda rasman betaraf bo'ladi yoki diniy masalalarga aralashishdan o'zini tiyadi.

Dunyoviy davlatning muhim xususiyatlaridan biri – turli din vakillarining bag'rikenglik va tinch-totuvlikda yashashidir. Jamiyatda turli-tuman din va madaniyatlar vakillari mavjud bo'lgan holda, davlat boshqaruvi va siyosati bir mafkuraga yoki diniy qarashga asoslanishi maqsadga muvofiq emas. Bunday sharoitda har bir davlat uchun eng adolatli va to'g'ri yo'l – dunyoviy davlat yo'lidir.

Dunyoviy davlat prinsiplari ko'plab xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida (Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston) mavjud. Masalan, o'z konstitutsiyasida ushbu prinsipni belgilagan Turkiya tajribasi ham shundan dalolat beradiki, dunyoviy taraqqiyot va barcha demokratik tizimlarda dunyoviy davlatning asosiy prinsiplaridan biri – vijdon erkinligi kafolatlangan.

O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2300 dan ortiq diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Turli diniy e'tiqodga mansub aholiga ega davlatda e'tiqod erkinligining kafolatlanishi siyosiy va huquqiy ahamiyat bilan birga, ijtimoiy ahamiyatga ega.

Shu bois har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmasligi huquqiga egaligi, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan bo'lib, shaxsning diniy e'tiqodi bo'yicha unga qo'shimcha huquq yoki majburiyatlar yuklanmaydi. O'zbekistonni dunyoviy davlat sifatida belgilash–dunyoviy taraqqiyot, turli din va mazhablar o'rtasida bag'rikenglik va totuvlikni mustahkamlashga, diniy birlashmalarning mustaqil faoliyat yuritishiga, din va e'tiqod erkinligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Tayanch soz'-iboralar:** Dunyoviy davlat, huquqiy davlat, suveren davlat, demokratik davlat, dunyoviy davlat sifatida belgiash, din va mazhab.

**Mavzu yuzasidan savol topshiriqlar:**

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasida O'zbekiston – huquqiy davlat, deb belgilanmoqda. Bu nimani anglatadi?
2. Konstitutsiyada O'zbekistonni ijtimoiy davlat, deb belgilashning ahamiyati nimada?
3. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining 1-moddasida O'zbekiston – dunyoviy davlat, deb belgilanmoqda. Buni nimani anglatadi?

***Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati***

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O'zbekiston". 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyat yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*

**4-mavzu: O'zbekiston tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlari.**

Mavzu rejasi:

1. O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi sifatida xalqaro shartnomalarning tan olinishiga doir qoidaning Konstitutsiyaga kiritilayotganligining ahamiyati.
2. O'zbekiston Konstitutsiyasining birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi-ning huquq va manfaatlariga, Konstitutsiyaning birinchi bo'limida nazarda tu-tilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emasligini belgilashning ahamiyati
3. Konstitutsiyaga tashqi siyosatning asosiy prinsiplaridan biri sifatida "davlatlarning hududiy yaxlitligi" prinsipining kiritilganligi
4. O'zbekiston Respublikasi tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi, degan yangi prinsipning mazmun-mohiyati.

Davlatimiz huquqiy tizimini konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik, oila, mehnat, jinoyat, ijtimoiy himoya kabi qator huquq sohalari tarkibiy qism sifatida tashkil etadi. Deyarli barcha qonunlarimizda agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida qonunda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi belgilangan. Ammo mazkur qoida konstitutsiyaviy darajada belgilanmagan edi.

Ta'kidlash lozimki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir", degan norma mustahkam-lanmoqda.

1969 yil 23 maydagi "Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasi hamda 2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonunga binoan xalqaro shartnoma-bu shartnoma, bitim, konvensiya, akt, pakt, bayonnoma, xatlar yoki notalar almashinuvi hamda xalqaro shartnomaning boshqacha nomlari va tuzilish usullaridan qat'i nazar, xorijiy davlat, xalqaro tashkilot bilan yozma shaklda tuzilgan, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro kelishuv hisoblanadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston xalqaro huquqning to'la huquqli sub'yekti sifatida 142 davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan, 200 ortiq xalqaro shartnomalar a'zosi bo'lib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini qamrab oluvchi xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Sloveniya va bir qator boshqa davlatlar konstitutsiyaviy amaliyotida xalqaro shartnomalar milliy huquqiy tizimining tarkibiy qismi ekanligi belgilangan. Konstitutsiyaga O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi sifatida davlatimiz a'zo bo'lgan xalqaro shartnomalar kiritilishi davlatimiz chin ma'noda huquq ustuvorligiga erishishiga intilishi, hamda respublikaning xalqaro miqyosdagi nufuzi yanada oshishini, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari asosida himoyalaniishini ta'minlaydi.

Konstitutsiyamizning birinchi bo'limida nazarda tutilgan asosiy qoidalar mamlakatimiz siyosiy-huquqiy tizimining asosiy ustunlari sifatida namoyon bo'lib, uni "Konstitutsiya ichidagi kichik Konstitutsiya" desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, unda davlatchiligimiz barqarorligini ta'minlovchi muhim konstitutsiyaviy kafolatlar o'z o'rnini topgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "hayot oldimizga yana qancha sinov va muammolarni qo'yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, demokratik islohotlar yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz", deb alohida ta'kidladi. Shularni inobatga olib, demokratik islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish uchun muhim huquqiy kafolatlar yaratish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 16-moddasida "Ushbu Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, ushbu Konstitutsiyaning birinchi bo'limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas", deb qat'iy belgilanmoqda.

Bosh qomusimizning asosiy prinsiplarini davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosat tashkil etadi. Mazkur asosiy prinsiplar ustuvor ahamiyat kasb

etib, Asosiy qonunimizning butun mazmun-mohiyatini belgilab beradi, siyosiy-huquqiy tizimimizning ustunlari, davlatchiligimizning poydevorini ifoda etadi.

Konstitutsiyamizda davlatchiligimizning poydevoriga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xatarlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan kafolat, favqulodda muhim ahamiyat kasb etuvchi rahbariy qoidalar belgilanmoqda. Ushbu yangi konstitutsiyaviy norma butun siyosiy-huquqiy tizimimizning mustahkam himoyasi, Konstitutsiyamizning to'g'ri talqin qilinishi, fuqarolarimiz va jamiyatimiz farovonligi, mamlakatimizning demokratik va barqaror rivojini ta'minlash uchun muhim konstitutsiyaviy kafolat yaratadi.

Davlatlarning hududiy yaxlitligi davlat va uning suverenitetining muhim sharti, xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan biridir. Kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish natijasida biror-bir davlat hududi yoki uning bir qismi egallab olinishi tan olinmaydi. Ta'kidlash lozimki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 17-moddasida "davlatlarning hududiy yaxlitligi" O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Davlatlarning hududiy yaxlitligi prinsipi dastlab, 1945 yilda qabul qilingan BMT Ustavida belgilangan, keyinchalik BMT, YeXHT, SHHT va boshqa xalqaro tashkilotlar-ning hujjatlarida, xususan, BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va hamkorlikka oid xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiyada (1970 yil) takomillashtirilgan.

Mazkur prinsipga ko'ra, har qanday davlat boshqa davlatning hududiy yaxlitligini hurmat qilishi, uning suvereniteti, milliy birligi va hududiy yaxlitligini qisman yoki to'liq buzishga qaratilgan har qanday harakatlardan o'zini tiyishi lozim.

Bundan tashqari, davlatlar va xalqaro huquqning boshqa sub'yektlari biror-bir davlat hududiga, uning bir qismiga yoki resurslariga kuch bilan yoki kuch ishlatish tahdidi bilan bevosita yoxud bilvosita tajovuz qilmasliklari shart. Bunda davlatlar alohida davlat hududi yoki uning bir qismiga ziyon yetkazuvchi har qanday harakatlardan tiyilishlari va buzg'unchi davlatlarni qo'llab-quvvatlamasliklari lozim.

Hududiy yaxlitlik prinsipiga muvofiq, nafaqat O'zbekiston boshqa davlatlarni, balki boshqa davlatlar ham mamlakatimiz chegaralari daxlsizligini hurmat qilishi lozim. Hozirgi tahlikali davrda davlatlarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish prinsipiga amal qilish-tashqi siyosatda barqarorlikni ta'minlashning muhim omilidir. Davlatlarning hududiy yaxlitligi prinsipi deyarli barcha davlatlar, shu jumladan, Germaniya, Fransiya kabi davlatlar konstitutsiyalarida o'z ifodasini topgan.

Mazkur prinsipning Konstitutsiyaga kiritilishi O'zbekistonning dunyodagi barcha boshqa davlatlar hududiy yaxlitligini tan olishi va hurmat qilishini, ichki va tashqi siyosatda yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonch, do'stona aloqalarni rivojlantirishni, sarhadlarimiz osoyishtaligini, xalqimiz xavfsizligini, tinch-totuv hayot kechirishi va rivojlanishimiz barqarorligining huquqiy asosini mustahkamlaydi.

Davlatlar o'rtasida doimiy do'stlikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish, jahon va mintaqa darajasida tinchlikni ta'minlash xalqaro munosabatlarning dolzarb masalasi hisoblanadi. O'zbekiston o'z taraqqiyot bosqichida ochiq, o'zaro hurmat, tenglik va manfaatdorlik, yaxshi qo'shnichilik prinsiplariga asoslangan tashqi siyosat olib bormoqda. Masalan, qardosh Qirg'iziston bilan 30 yillik chegara muammosi yechilganligi tufayli 2 milliondan ziyod vodiy aholisi o'z yaqinlari, qarindosh-urug'lari bilan erkin bordi-keldi qiladigan bo'ldi.

Ayni shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchlik-sevar tashqi siyosatni amalga oshiradi", degan norma nazarda tutilmoqda.

BMT Nizomida ham xalqlar bir-birlari bilan murosayu madora va toqatlilikni namoyon qilib, tinchlik sharoitida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini shakllantirib yashashlari lozimligi mustahkamlangan. Tinchliksevar siyosat deganda, davlatlarning siyosiy- iqtisodiy va ijtimoiy tizimlari va ularning rivojlanish darajasidan qat'i nazar, erkinlik, tenglik, adolat va insonning asosiy huquqlarini hurmat qilish, shuningdek, davlatlar va xalqlar o'rtasida tinchlikni mustahkamlashi tushuniladi.

O'zbekistonning mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro maydondagi salohiyatini kengaytirish va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamda o'zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirish yo'nalishlari qonun bilan tasdiqlangan "Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi"da belgilangan. Davlatimiz dunyoning 131 ta davlati bilan diplomatik munosabatlar o'rnatib, 38 ta davlatda 37 ta elchixonalar, 17 ta shaharda bosh konsulxonalar, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarda doimiy vakolatxonalarimiz faoliyat yuritmoqda. Bunday normaning kiritilishi aholimizning boshqa xalqlar bilan tinch-totuv, do'stona, xavfsiz sharoitda yashashi, xorijiy mamlakatlar, ayniqsa, qo'shni davlatlarga emin-erkin borib-kelishi, qon-qarindoshlik rishtalarini mustahkamlashi, mamlakat investisiya muhitining yaxshilanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

**Tayanch so'z-iboralar:** suverenitet, chegaralar daxlsizligi, investisiya muhiti, tinchliksevar siyosat, xalqaro huquqning to'la huquqli sub'ekti, diplomatic munosabatlar, BMT nizomi/

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar**

1. O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi sifatida xalqaro shartnomalarning tan olinishiga doir qoidaning Konstitutsiyaga kiritilayotganligining ahamiyati nimada?
2. O'zbekiston Konstitutsiyasining birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, Konstitutsiyaning birinchi bo'li mida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emasligini belgilashning ahamiyati nimada?
3. Konstitutsiyaga tashqi siyosatning asosiy prinsiplaridan biri sifatida "davlatlarning hududiy yaxlitligi" prinsipining kiritilayotganligi qanday ahamiyatga ega?

4. O‘zbekiston Respublikasi tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi, degan yangi prinsipning mazmun-mohiyati nimada?

#### *Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati*

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: ”O‘zbekiston”. 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyat yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.*

### **5 mavzu: Insonning shaxsiy hamda siyosiy huquqlarini mustahkamlash masalalari**

#### **Mavzu rejasi:**

1. Insonning huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi, degan yangi konstitutsiyaviy norma kiritilishi
2. Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga hamda Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etilishi
3. Insonning huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi

Insonga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lgan tabiiy va ajralmas huquqlar sirasiga inson hayoti, sha’ni, qadr-qimmat, ozodligi, tengligi, erkin bo‘lishi, xavfsizligi, daxlsizligi kiradi va bu huquqlar qonunlarda belgilanganligi yoki belgilanmaganligidan qat’i nazar, insonga azaliy tegishlidir, deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yilning 20 iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya bilan uchrashuvda ta’kidlanganidek: “Insonning qadr-qimmat, asosiy huquq va erkinliklari daxlsiz, ajralmasdir, ular har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi”.

Huquqiy demokratik davlatda insonning qadr-qimmat, asosiy huquq va erkinliklarining daxlsizligi, ajralmasligini belgilash bilan bir qatorda, ularni har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli ekanligining tan olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 19-moddasida inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi, degan muhim qoida belgilanmoqda.

Ushbu qoida bilan insonning asosiy, tabiiy va ajralmas huquqlarini ta'minlash davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasi sifatida Konstitutsiya darajasida mustahkamlanmoqda. Mazkur huquqlarga yashash huquqi, erkinlikka bo'lgan huquq, shaxsiy va uy-joy daxlsizligi, boshpana huquqi, mulk huquqi, sud himoyasiga bo'lgan huquq, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi, erkin harakatlanish, yashash joyini tanlash, fuqarolikka ega bo'lish, mehnat qilish huquqi, bilim olish huquqi, tibbiy huquq va boshqa shu kabilar kiradi.

Insonning huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishi O'zbekiston a'zo bo'lgan inson huquqlariga oid 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarda belgilangan.

Ular orasida umume'tirof etilgan inson huquqlari bo'yicha BMTning 7 ta asosiy shartnomasi va ularga qo'shimcha protokollar, YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkilotining xalqaro konvensiyalari, xalqaro gumanitar huquq konvensiyalari, YeXHTning "Insoniylik mezonlari" hujjatlari, shuningdek, Islom hamkorlik tashkiloti, MDH kabi mintaqaviy tashkilotlarning hujjatlari milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi degan norma Ispaniya, Italiya, Sloveniya, Chexiya konstitutsiyalarida belgilangan.

Inson huquq va erkinliklarini Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlash, xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash huquqiy demokratik davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi vaqtda O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan BMTning 7 ta asosiy shart-nomalari va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi", degan insonparvar norma mustahkamlanmoqda.

Konstitutsiyaga kiritilayotgan ushbu norma inson huquq va erkinliklarining O'zbekiston Konstitutsiyasi va xalqaro hujjatlarga muvofiq tan olinishini, xususan, ularni xalqaro hujjatlarda ko'rsatilgan umume'tirof etilgan norma-larni amaliyotda to'g'ridan-to'g'ri qo'llash, milliy qonunchilik hujjatlariga singdirish va boshqa mexanizmlar orqali ta'minlashni ko'zda tutadi. Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga hamda Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etilishi deyarli barcha demokratik davlatlar konstitutsiyalarida belgilangan.

2. Konstitutsiyamizning birinchi bo'limida nazarda tutilgan asosiy qoidalar mamlakatimiz siyosiy-huquqiy tizimining asosiy ustunlari sifatida namoyon bo'lib, uni "Konstitutsiya ichidagi kichik

Konstitutsiya” desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, unda davlatchiligimiz barqarorligini ta‘minlovchi muhim konstitutsiyaviy kafolatlar o‘z o‘rnini topgan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida “hayot oldimizga yana qancha sinov va muammolarni qo‘yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin, demokratik islohotlar yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz”, deb alohida ta‘kidladi. Shularni inobatga olib, demokratik islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish uchun muhim huquqiy kafolatlar yaratish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 16-moddasida “Ushbu Konstitutsiyaning birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, ushbu Konstitutsiyaning birinchi bo‘limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas”, deb qat‘iy belgilanmoqda.

3. Bosh qonunimizning asosiy prinsiplarini davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosat tashkil etadi. Mazkur asosiy prinsiplar ustuvor ahamiyat kasb etib, Asosiy qonunimizning butun mazmun-mohiyatini belgilab beradi, siyosiy-huquqiy tizimimizning ustunlari, davlatchiligimizning poydevorini ifoda etadi.

*Tayanch iboralar: tarix, Konstitutsiya, O‘zbekiston Konstitutsiyasi, fan, predmet, obyekt, maqsadi, vazifalari, tamoyillar, holislik, ilmiylik, tarixiylik, huquq, erkinlik, huquqiy tafakkur, fuqarolik, burch, majburiyat, millat, milliy o‘zlikni anglash.*

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Insonning huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi, degan yangi konstitutsiyaviy normaning kiritilishi sabablari nimalardan iborat?
2. Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan normalariga hamda Konstitutsiyaga muvofiq e‘tirof etilishi oqibatlarini nimalarga olib kelishi mumkin?
3. Insonning huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi ahamiyati nimada?

*Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati*

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: ”O‘zbekiston”. 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.*

## **6-mavzu: O'zbekiston Respublikasi fuqorolarining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari**

Mavzu rejasi:

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasiga kiritilayotgan hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas, degan normani kiritilishi
2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasiga xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan bog'liq qanday o'zgartish va qo'shimchalar
3. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi, degan qat'iy norma o'rnatilishining mohiyati

Huquqiy davlat sifatida O'zbekistonda ham har qanday faoliyat, huquq va erkinliklar, majburiyatlar faqat va faqat qonunchilikka muvofiq belgilanishi va amalga oshirilishi lozim. Shu ma'noda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 21-moddasida "Hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas", degan norma mustahkamlanmoqda.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish, boshqalarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash, O'zbekiston Respublikasini himoya qilish va boshqa burch hamda majburiyatlar jismoniy va yuridik shaxslarga yuklatilgan.

Yangi kiritilayotgan norma jismoniy va yuridik shaxslar faqat Konstitutsiya va qonunchilik hujjatlarida majburiy etib belgilanganidan tashqari, boshqa biror-bir majburiyatni bajarishga burchli emasligini, shuningdek davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari ham ularga qo'shimcha majburiyatlarni yuklash vakolatiga ega emasligini anglatadi.

Bu esa amaliyotda ayrim holatlarda uchrab turadigan biror- bir qonunchilik hujjatida nazarda tutilmagan majburiyatni yoki qandaydir vazifani tashkilot rahbari tomonidan xodimga yuklash kabi salbiy holatlarga chek qo'yadi. Muhim jihati shundaki, ko'pincha mansabdor shaxslar yoki rahbarlar o'z bo'ysunuvidagi shaxslarga turli ko'rinishdagi og'zaki va yozma ko'rsatmalar, topshiriqlar va vazifalarni yuklaydi.

Xodim esa bunday holatda noqulay vaziyatga tushadi, hatto ushbu vazifa va topshiriqlarni bajarish oqibatida javobgarlikka tortilishiga ham sabab bo'ladi.

Ayrim holatlarda maktab o'qituvchilarini hokimiyat yoki mahallalar faoliyatiga ko'maklashish uchun uning ixtiyoriga zid ravishda jalb etish kabi amaliyot bunga yaqqol misol bo'ladi. Shu ma'noda kiritilayotgan ushbu norma, eng avvalo, rahbarlarni qonunchilikda ko'rsatilmagan topshiriqlarni berishdan tiyilishga majbur qiladi, ayni paytda xodimlarga ushbu vazifa

biror-bir qonunchilik hujjatida ko'rsatilmagan, deb ijro etmaslik, uni bekor qilinishini yuqori idoralardan talab qilish imkoniyatini beradi.

Bu esa amaliyotda ayrim holatlarda uchrab turadigan biror-bir qonunda ko'rsa-tilmagan majburiyatni yoki qandaydir vazifani (masalan, jamoat ishlariga jalb qilish, ish vaqtidan tashqari yoki dam olish kunlari ishlash) tashkilot rahbari tomonidan xodimga yuklash kabi salbiy holatlarga qat'iy chek qo'yadi. Mazkur norma Germaniya, Bolgariya, Serbiya, Gruziya, Ispaniya va boshqa mamlakatlar konstitutsiyalarida belgilab qo'yilgan.

Har bir davlat o'z fuqarosi qayerda bo'lishidan qat'i nazar, uni himoya qilishga majburdir. Shu nuqtai nazardan, hech bir davlat o'z fuqarosini hududidan majburan chiqarib yuborilishiga yoki boshqa davlatga berishga yo'l qo'ymaydi. Aynan shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 23-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas", degan insonparvar norma belgilanmoqda.

Fuqaroning o'z mamlakati hududidan majburiy chiqarib yuborilishi deganda, uning erki-xohishiga zid ravishda siyosiy, diniy, milliy, mafkuraviy, madaniy va boshqa qarashlari yoki faoliyatini yoxud boshqa vajlarni asos qilib yashab turgan mamlakatidan majburiy chiqarib yuborilishini anglatadi.

Bundan tashqari, surgun yoki badarg'a kabi jazo chorasi sifatida ham o'z uyini tark etishga majbur qilinishi tushuniladi. Sho'rolar davrida siyosiy tuzumga yoqmaydigan yoki o'zgacha fikrlaydigan fuqarolarni Vatanidan tashqariga surgun qilish amaliyoti bunga yorqin misol bo'la oladi. 1930 yillarda mamlakatimizda 5,5 mingdan ziyod oilalar siyosiy tuzumning qurbonlariga aylanib, "quloq" qilinganligi, zo'ravonlik bilan o'z vatanidan, qarindosh- urug'laridan judo etilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Inson huquqi va qadr- qimmatini oyoq osti qiluvchi amaliyotlar tarixda bo'lgan- ligini inobatga olib, davlat o'z fuqarolarini jazo yoki siyosiy chora sifatida o'z hududidan majburan chiqarib yuborishi mumkin emasligi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 4-protokoli hamda Inson huquqlari bo'yicha Arab xartiyasida ham to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan.

O'z fuqarosini boshqa davlatga bermaslik (non- extradition) deganda, xalqaro huquqda davlat o'z fuqarosini sodir etgan jinoyati uchun boshqa davlatga ushlab bermasligi tushuniladi. Shu bilan birga, xalqaro shartnomalarga asosan, davlatlar o'z fuqarolarini ushlab berishni rad etishi jinoyatchining jazosiz qolishini anglatmaydi.

Mazkur yangi norma fuqarolarimizning doimiy ravishda davlat himoyasida ekanligiga ishonchini mustahkamlashga, o'z yurtidan chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berilishi kabi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi, davlat va uning mas'ul organlarining o'z fuqarolari taqdiriga befarq emasligini namoyon etadi.

Har bir davlat o'z fuqarosi qayerda bo'lishidan qat'i nazar, uni himoya qilishga majburdir. Shu nuqtai nazardan, hech bir davlat o'z fuqarosini hududidan majburan chiqarib yuborilishiga yoki boshqa davlatga berishga yo'l qo'ymaydi. Aynan shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 23-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas", degan insonparvar norma belgilanmoqda.

Fuqaroning o'z mamlakati hududidan majburiy chiqarib yuborilishi deganda, uning erki-xohishiga zid ravishda siyosiy, diniy, milliy, mafkuraviy, madaniy va boshqa qarashlari yoki faoliyatini yoxud boshqa vajlarni asos qilib yashab turgan mamlakatidan majburiy chiqarib yuborilishini anglatadi. Bundan tashqari, surgun yoki badarg'a kabi jazo chorasi sifatida ham o'z uyini tark etishga majbur qilinishi tushuniladi. Sho'rolar davrida siyosiy tuzumga yoqmaydigan yoki o'zgacha fikrlaydigan fuqarolarni Vatanidan tashqariga surgun qilish amaliyoti bunga yorqin misol bo'la oladi.

1930 yillarda mamlakatimizda 5,5 mingdan ziyod oilalar siyosiy tuzumning qurbonlariga aylanib, "quloq" qilinganligi, zo'rvonlik bilan o'z vatanidan, qarindosh- urug'laridan judo etilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Inson huquqi va qadr- qimmatini oyoq osti qiluvchi amaliyotlar tarixda bo'lganligini inobatga olib, davlat o'z fuqarolarini jazo yoki siyosiy chora sifatida o'z hududidan majburan chiqarib yuborishi mumkin emasligi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 4-protokoli hamda Inson huquqlari bo'yicha Arab xartiyasida ham to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan.

O'z fuqarosini boshqa davlatga bermaslik (non- extradition) deganda, xalqaro huquqda davlat o'z fuqarosini sodir etgan jinoyati uchun boshqa davlatga ushlab bermasligi tushuniladi. Shu bilan birga, xalqaro shartnomalarga asosan, davlatlar o'z fuqarolarini ushlab berishni rad etishi jinoyatchining jazosiz qolishini anglatmaydi. Mazkur yangi norma fuqarolarimizning doimiy ravishda davlat himoyasida ekanligiga ishonchini mustahkamlashga, o'z yurtidan chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berilishi kabi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi, davlat va uning mas'ul organlarining o'z fuqarolari taqdiriga befarq emasligini namoyon etadi.

Bir qator davlatlarda xorijdagi vatandosh- larni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda "Konstitutsiya mizga davlat chet elda yashayotgan va ishlayotgan fuqarolarimiz hamda vatandoshlar bilan muntazam aloqalarni saqlab qolish va rivojlantirish haqida g'amxo'rlik qiladi, degan qoidani kiritish lozim", deb davlatning yangi majburiyatini belgilashni taklif etdi.

Shundan kelib chiqib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 23-moddasida “Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qiladi”, degan norma belgilanmoqda.

Xorijda yashayotgan vatandosh deganda O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilgan yoki ilgari uning hududida yashagan, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo‘lmagan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashaydigan shaxs va uning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan keyingi qarindoshlari, bosharti, agar ularning nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan o‘zidan oldingi qarindoshlari O‘zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan bo‘lsa hamda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bo‘lsa tushuniladi.

Dunyodagi barcha o‘zbeklar o‘zaro madaniy aloqalarni saqlab qolishi maqsadida chet ellarda taxminan 500 dan ortiq o‘zbek milliy-madaniy markazlari faoliyat yuritadi. Ayrim xorijiy mamlakatlar konstitutsiyasida vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash to‘g‘risida norma mavjud. Xususan, Gruziya, Serbiya, Polsha va boshqa mamlakatlarning konstitutsiyalarida belgilab o‘tilgan.

Ushbu norma chet ellarda yashayotgan, ishlayotgan, ta‘lim olayotgan vatandoshlarimizning O‘zbekiston bilan doimiy aloqada bo‘lishiga, tili, madaniyati, urf-odatlarini va an‘analarini saqlab qolish hamda rivojlantirishga, o‘zlarining tarixiy Vatani – O‘zbekistonning obro‘cini yanada oshirishga o‘z hissasini qo‘shishlariga xizmat qiladi.

Har bir davlat o‘z fuqarosi qayerda bo‘lishidan qat‘i nazar, uni himoya qilishga majburdir. Shu nuqtai nazardan, hech bir davlat o‘z fuqarosini hududidan majburan chiqarib yuborilishiga yoki boshqa davlatga berishga yo‘l qo‘ymaydi. Aynan shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 23-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas”, degan insonparvar norma belgilanmoqda.

Fuqaroning o‘z mamlakati hududidan majburiy chiqarib yuborilishi deganda, uning erki-xohishiga zid ravishda siyosiy, diniy, milliy, mafkuraviy, madaniy va boshqa qarashlari yoki faoliyatini yoxud boshqa vajlarni asos qilib yashab turgan mamlakatidan majburiy chiqarib yuborilishini anglatadi. Bundan tashqari, surgun yoki badarg‘a kabi jazo chorasi sifatida ham o‘z uyini tark etishga majbur qilinishi tushuniladi.

Sho‘rolar davrida siyosiy tuzumga yoqmaydigan yoki o‘zgacha fikrlaydigan fuqarolarni Vatanidan tashqariga surgun qilish amaliyoti bunga yorqin misol bo‘la oladi. 1930 yillarda mamlakatimizda 5,5 mingdan ziyod oilalar siyosiy tuzumning qurbonlariga aylanib, “quloq” qilinganligi, zo‘ravonlik bilan o‘z vatanidan, qarindosh- urug‘laridan judo etilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar bor. Inson huquqi va qadr- qimmatini oyoq osti qiluvchi amaliyotlar tarixda bo‘lganligini inobatga olib, davlat o‘z fuqarolarini jazo yoki siyosiy chora sifatida o‘z hududidan

majburan chiqarib yuborishi mumkin emasligi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 4-protokoli hamda Inson huquqlari bo'yicha Arab xartiyasida ham to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan.

O'z fuqarosini boshqa davlatga bermaslik (non- extradition) deganda, xalqaro huquqda davlat o'z fuqarosini sodir etgan jinoyati uchun boshqa davlatga ushlab bermasligi tushuniladi. Shu bilan birga, xalqaro shartnomalarga asosan, davlatlar o'z fuqarolarini ushlab berishni rad etishi jinoyatchining jazosiz qolishini anglatmaydi. Mazkur yangi norma fuqarolarimizning doimiy ravishda davlat himoyasida ekanligiga ishonchini mustahkamlashga, o'z yurtidan chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berilishi kabi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi, davlat va uning mas'ul organlarining o'z fuqarolari taqdiriga befarq emasligini namoyon etadi.

Bir qator davlatlarda xorijdagi vatandoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarida qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda "Konstitutsiya mizga davlat chet elda yashayotgan va ishlayotgan fuqarolarimiz hamda vatandoshlar bilan muntazam aloqalarni saqlab qolish va rivojlantirish haqida g'amxo'rlik qiladi, degan qoidani kiritish lozim", deb davlatning yangi majburiyatini belgilashni taklif etdi.

Shundan kelib chiqib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 23-moddasida "Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to'g'risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qiladi", degan norma belgilanmoqda.

Xorijda yashayotgan vatandosh deganda O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan yoki ilgari uning hududida yashagan, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashaydigan shaxs va uning nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan o'zidan keyingi qarindoshlari, basharti, agar ularning nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan o'zidan oldingi qarindoshlari O'zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan bo'lsa hamda O'zbekiston Respublika sining fuqarolari bo'lsa tushuniladi.

Dunyodagi barcha o'zbeklar o'zaro madaniy aloqalarni saqlab qolishi maqsadida chet ellarda taxminan 500 dan ortiq o'zbek milliy-madaniy markazlari faoliyat yuritadi. Ayrim xorijiy mamlakatlar konstitutsiyasida vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash to'g'risida norma mavjud. Xususan, Gruziya, Serbiya, Polsha va boshqa mamlakatlarning konstitutsiyalarida belgilab o'tilgan. Ushbu norma chet ellarda yashayotgan, ishlayotgan, ta'lim olayotgan vatandoshlarimizning O'zbekiston bilan doimiy aloqada bo'lishiga, tili, madaniyati, urf-odatlarini va an'alarini saqlab qolish hamda rivojlantirishga, o'zlarining tarixiy Vatani – O'zbekistonning obro'sini yanada oshirishga o'z hissasini qo'shishlariga xizmat qiladi. Yashash huquqi har bir insonning ajralmas va tabiiy huquqi bo'lib, u mamlakatda o'lim jazosini belgilash, tayinlash va ijro etishni qat'iy inkor etadi.

O‘lim jazosi eng og‘ir jinoiy jazo bo‘lib, u qo‘llaniladigan deyarli barcha davlatlarda o‘ta og‘ir, inson hayotiga qasd qiladigan jinoyatlar uchungina ko‘zda tutilgan.

Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022 yil 20 iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvda Konstitutsiyamizga “O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlanadi”, degan yana bir muhim normani kiritishni taklif qildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 25-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi” degan qat‘iy norma mustahkamlanmoqda. Shu tariqa, davlatimiz bu nihoyatda jiddiy masalada hech qachon ortga qaytmasligini, insonparvarlik g‘oyalariga sodiq ekanligini butun dunyoga namoyon qilmoqda.

Tarixga nazar tashlasak, 1994 yildagi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida 33 turdagi jinoyat uchun o‘lim jazosi belgilangan edi. O‘lim jazosi belgilangan normalar bosqichma-bosqich qisqartirilib, 2008 yil 1 yanvardan esa o‘lim jazosi jinoiy jazo sifatida batamom bekor qilindi. O‘zbekistonda o‘lim jazosining bekor qilinishi va taqiqlanishi BMTning 1966 yil 16 dekabrda fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt talablariga ham to‘liq muvofiq keladi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yuqori sudlar tomonidan avval chiqarilgan ko‘plab hukmlar qayta ko‘rilib, oqlov hukmlari chiqarilmoqda. Demak, sudlar ham xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkinligi xavfini inkor etib bo‘lmaydi. Shunday ekan, o‘lim jazosi tayinlangan shaxsga sud kelgusida oqlov hukmi chiqaradigan bo‘lsa, nohaq ayblangan inson hayotini ortga qaytarishning hech qanday imkoni yo‘q!

O‘lim jazosiga qaytmaslik yuzasidan O‘zbekistonning qat‘iy pozitsiyasi Konstitutsiyada mustahkamlanishi davlatimizda inson hayoti va qadri yuqori darajada muhofaza etilishini yana bir bor tasdiqlaydi. Bugungi kunda 106 davlatda (Kanada, Argentina, Daniya, Fransiya, Italiya, Norvegiya, Shvesiya, Bolgariya, Polsha va boshqalar) o‘lim jazosi barcha jinoyatlar uchun bekor qilingan. Konstitutsiyaga ushbu normaning kiritilishi bilan O‘zbekiston insonparvarlik g‘oyalariga o‘z sodiqligini namoyon etadi, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda o‘lim jazosini qaytarish bo‘yicha har qanday tashabbuslarga barham beradi. Pirovardida esa har bir insonning, hatto u jinoyat sodir etgan bo‘lsa ham, yashah huquqning kafolatlanishiga xizmat qiladi.

**Tayanch so‘z-iboralar:**”Miranda” qonuni, o‘lim jazosining bekor qilinishi, “Xabeus korpus”.

### **Mavzu yuzasidan savol -topshiriqlar**

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasiga kiritilayotgan hech kimga uning rozilgisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas, degan norma nimani anglatadi?

2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyahasiga xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan bog‘liq qanday o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilmoqda?
3. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi, degan qat’iy norma o‘rnatilishining mohiyati nimada?

#### *Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati*

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O‘zbekiston". 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyat yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.*

#### **7-mavzu: Majburiy mehnat masalalari va bolalar mehnatini ta’qiqlash (2-soat)**

Mavzu rejasi:

1. Majburiy mehnat tushunchasi
2. Majburiy mehnatga barham berish konstitutsion asoslari
3. Bolalar mehnatini ta’qiqlashning konstitutsiyada namoyon bo‘ishi

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida jamiyatimiz, davlatimiz oldida Yangi O‘zbekistonni qurish va uning amalga oshirish chora-tadbirlari hamda harakatlar strategiyasi ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich, uni amalga oshirish tadbirlari belgilab berildi.

Buning uchun asosiy e’tibor, davlatimizning ustivor vazifasiga aylangan, de-mokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquqlari va erkinlarini ta’minlash, fuqarolarning farovon yashashlarini ta’minlab berish, shuningdek, bu sohada o‘z yechimini kutib yotgan muammolarni hal etish kerak edi.

Xalqimiz tarixidan chuqur o‘rin olgan va uzoq vaqtlar davomida yechimi kutilayotgan muammolaridan biri, yurtimizda majburiy mehnatni tugatish va bolalar mehnatiga barham berishdek masalaga Prezident Sh. M. Mirziyoyev faol jamoatchilikning diqqatini qaratdi.

Holbuki, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya -sining 37-moddasida respublikamizda majburiy mehnat taqiqlanganligining belgilab qo‘yilganligi biroq ushbu moddaning ijrosi bo‘yicha 25 yil davomida hech qanday tadbir olib borilmaganligining tarixning o‘zi ko‘rsatib berdi.

Prezidentimiz faoliyatining dastlabki yillaridayoq, Konstitutsiyasining 37-moddasida belgilangan qoidaga qat'iy amal qilish uchun bir qator ishlar amalga oshirib, xususan, ta'sirchan parlament va jamoatchilik nazorat o'rnatildi hamda fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha Parlament komissiyasi tuzilib, deputat va senatorlardan iborat ishchi guruhlar respublikamizning barcha hududlariga chiqib, bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik bo'yicha parlament nazorati amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Bolalar mehnati va majburiy mehnat siyosati, O'zbekistonda uzoq vaqtlar davomida saqlanib qolingani, aslida uning kelib chiqish ildizlari sovet mustamlakachiligi davriga borib taqalib, kommunistik tuzumning respublikada paxta yakkahokimligini o'rnatish ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi hech kimga sir emas albatta.

Respublikaning barcha aholi qatlamlari, jumladan, bolalar ham paxta yetish-tirish manfaatlariga bo'ysundirilgan bo'lib, Prezident ta'kidlaganidek, yaqin-yaqin-gacha har yili taxminan 6-7 million odam paxta yetishtirishga majburan safarbar etilar, yuz yil davomida o'zbek xalqi egilib, paxta terimiga majbur etildi, hatto maktab bolalari ham paxtaga haydaldi.

Sovet xukumati paxtaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida, O'zbekiston-ni paxta yetishtirib beruvchi respublikaga aylantirdi. Ayniqsa Ikkinchi jahon urushi (1941-1945 yy.) va urushdan keyingi yillarda paxtani ko'paytirish kabi talab-lar kuchayib borib, oqibatda bu yo'lda bolalarni mehnatidan foydalanish kabi "tashabbus"lar rag'batlantirilib borildi.

1945 yilda, O'zbekiston xalqi ishchi kuchi yetishmay, o'z bolalarini paxta terimiga jalb qilishga majbur bo'lgan deya ko'pchilikda fikr tug'ilishi mumkin, biroq urushdan keyingi yillarda ham, sovet xukumati bolalar mehnatidan foydalanishni to'xtatmadi.

Ushbu qarorda ko'rsatilgan "zarur bo'lib qolganda"gina emas, zarur bo'lmagan vaqtlarda ham, qariyb 50 yil davomida ushbu qaror bandi to'la to'kis ijrosi ta'minlandi bu borada viloyat, tuman hamda kolxoz raislari tashabbuskor bo'lishdi.

Yil davomida paxta maydonida o'quvchilarni ushlab turish ta'lim-tarbiya sifa-tiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazgan, ayniqsa paxtaga ishlov berish va hosilni yig'ib olishda yil davomida, bolalar maktab yuzini ko'rishmadi, Prezident Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "o'qituvchi bir oyda o'rtacha 80 soat dars o'tadigan bo'lsa, 4 oy davomida 320 soat dars yo'qotadigan vaziyat vujudga kelganligi, o'z navbatida o'quvchi bir oyda 136 soat saboq oladigan bo'lsa, 4 oyda 544 soat darsni boy berishga majbur bo'lganligi, boshqacha aytganda, o'quvchilarimiz maktabda 11 yil o'rniga majburiy mehnat tufayli, atigi 7 yil o'qiganligi" ta'lim jarayonini achinarli holatga olib kelib qo'yganligini kuzatish mumkin edi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilib, o'zining istiqlol va taraqqiyot yo'li-ni qurishga kirishdi. Bu taraqqiyot yo'li xalqimizning farovon kelajagini ta'min-lamog'i va bolalarimizni shoduxurramlikda yurishini kafolatlamog'i kerak edi.

Sovet mustamlakachiligining barcha sirtmoqlaridan xalos bo'lgan O'zbekistonga birgina og'ir asorat, ya'ni majburiy mehnatni tugatish va bolalar mehnatiga barham berish muammosi amaliyotda boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

Farzandlar hali hamon majburiy mehnat zug'umlaridan xalos bo'lmayotgan edi. Yuqorida ta'kidlaganidek, Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 37-moddasida ko'rsatilgan majburiy mehnatni taqiqlan-ganligi haqidagi fikr qog'ozda qolib ketib, kommunistik tuzumdan meros bo'lib qolgan bu "og'ir tosh"ni yo'ldan olib tashlash masalasi 25 yil davomida xalqimizga yuk bo'lib kelayotgan edi.

Prezident Sh. M. Mirziyoyev faoliyatining ilk davridayoq bu "og'ir tosh"ni yo'ldan olib tashlashning uddasidan chiqdi hamda yurtimiz tarixining sahifalarida uzoq vaqtlar davomida ildiz otib, farzandlarimizni o'z domiga tortib turgan, majburiy mehnatning barcha shakllariga qarshi, o'zining strategik va qat'iyatli siyosati bilan kurash olib bordi va jahon hamjamiyati oldida O'zbekistonning yuzini yorug' qildi.

O'zbekiston farzandlarini o'qishga ta'lim-tarbiyaga yetaklovchi o'qituvchilarimiz-ning jamiyatdagi mavqei oshirila boshlandi, jamiyatdagi barcha qatlamlar o'z vazifa-sini aralashuvlarsiz, erkin va xolisona amalga oshira boshladi.

Yangi O'zbekistonni qurish yo'lida bolalar kelajagi va taraqqiyoti uchun, xech qachon ularga majburiy mehnatning asoratlari soya solmasligi uchun, 2023 yilning 30 aprelida, xalqimizning hohish-irodasiga ko'ra, Yangi Konstitutsiya qabul qilinib, uning 44 moddasida "Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xafsizligiga, axloqi-ga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi" deb belgilab qo'yildi.

Xalqimiz tarixida bir asrdan beri og'riqqa aylangan bu muammo yana qayta yuzaga kelmasligi uchun, davlatimiz va keng jamoatchilik tomonidan huquqiy va ma'naviy kafolat sifatida, Konstitutsiyasiga zarhal harflar bilan yozib qo'yildi va tom ma'noda, O'zbekistonning eng yangi tarixida sodir bo'lgan bu olamshumul yutuqda Prezident Sh. M. Mirziyovning o'rni va roli beqiyos bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida jamiyatimiz, davlatimiz oldida Yangi O'zbekistonni qurish va uning amalga oshirish chora-tadbirlari hamda harakatlar strategiyasi ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich, uni amalga oshirish tadbirlari belgilab berildi.

Buning uchun asosiy e'tibor, davlatimizning ustivor vazifasiga aylangan, de-mokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquqlari va erkinlarini ta'minlash, fuqarolarning farovon yashashlarini ta'minlab berish, shuningdek, bu sohada o'z yechimini kutib yotgan muammolarni hal etish kerak edi. Xalqimiz tarixidan chuqur o'rin olgan va uzoq vaqtlar davomida yechimi kutilayot-gan muammolaridan biri, yurtimizda majburiy mehnatni tugatish va bolalar mehna-tiga barham berishdek masalaga Prezident Sh. M. Mirziyoyev faol jamoatchilikning diqqatini qaratdi.

Prezidentimiz faoliyatining dastlabki yillaridayoq, Konstitutsiyasining 37-moddasida belgilangan qoidaga qat'iy amal qilish uchun bir qator ishlar amalga oshirib, xususan, ta'sirchan parlament va jamoatchilik nazorat o'rnatildi hamda fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha Parlament komissiyasi tuzilib, deputat va senatorlardan iborat ishchi guruhlar respublikamizning barcha hududlariga chiqib, bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik bo'yicha parlament nazorati amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Bolalar mehnati va majburiy mehnat siyosati, O'zbekistonda uzoq vaqtlar davomida saqlanib qolingani, aslida uning kelib chiqish ildizlari sovet mustamlakachiligi davriga borib taqalib, kommunistik tuzumning respublikada paxta yakkahokimligini o'rnatish ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi hech kimga sir emas albatta.

Respublikaning barcha aholi qatlamlari, jumladan, bolalar ham paxta yetish-tirish manfaatlariga bo'ysundirilgan bo'lib, Prezident ta'kidlaganidek, yaqin-yaqin-gacha har yili taxminan 6-7 million odam paxta yetishtirishga majburan safarbar etilar, yuz yil davomida o'zbek xalqi egilib, paxta terimiga majbur etildi, hatto maktab bolalari ham paxtaga haydaldi.

Sovet xukumati paxtaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida, O'zbekiston-ni paxta yetishtirib beruvchi respublikaga aylantirdi. Ayniqsa Ikkinchi jahon urushi (1941-1945 yy.) va urushdan keyingi yillarda paxtani ko'paytirish kabi talab-lar kuchayib borib, oqibatda bu yo'lda bolalarni mehnatidan foydalanish kabi "tashabbus"lar rag'batlantirilib borildi.

1945 yilda, O'zbekiston xalqi ishchi kuchi yetishmay, o'z bolalarini paxta terimiga jalb qilishga majbur bo'lgan deya ko'pchilikda fikr tug'ilishi mumkin, biroq urushdan keyingi yillarda ham, sovet xukumati bolalar mehnatidan foydalanishni to'xtatmadi.

Ushbu qarorda ko'rsatilgan "zarur bo'lib qolganda"gina emas, zarur bo'lmagan vaqtlarda ham, qariyb 50 yil davomida ushbu qaror bandi to'la to'kis ijrosi ta'minlandi bu borada viloyat, tuman hamda kolxoz raislari tashabbuskor bo'lishdi.

Yil davomida paxta maydonida o'quvchilarni ushlab turish ta'lim-tarbiya sifa-tiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazgan, ayniqsa paxtaga ishlov berish va hosilni yig'ib olishda yil davomida, bolalar maktab yuzini ko'rishmadi, Prezident Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "o'qituvchi bir oyda o'rtacha 80 soat dars o'tadigan bo'lsa, 4 oy davomida 320 soat dars yo'qotadigan vaziyat vujudga kelganligi, o'z navbatida o'quvchi bir oyda 136 soat saboq oladigan bo'lsa, 4 oyda 544 soat darsni boy berishga majbur bo'lganligi, boshqacha aytganda, o'quvchilarimiz maktabda 11 yil o'rniga majburiy mehnat tufayli, atigi 7 yil o'qiganligi" ta'lim jarayonini achinarli holatga olib kelib qo'yganligini kuzatish mumkin edi.

Jumladan, 1984 yilda yurtimizda 37 ming paxta terish mashinasidan 17 mingtasi terim davrida foydalanilmadi. Aksincha, odamlarni paxta terimiga chiqarish yildan-yilga ko'payib borib, 1982 yilda 650 ming, 1983 yilda 850 ming, 1984 yilda 980 ming chetdan paxta terimi davrida qishloq xo'jaligi

ishiga jalb qilindi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e‘lon qilib, o‘zining istiqbol va taraqqiyot yo‘li-ni qurishga kirishdi. Bu taraqqiyot yo‘li xalqimizning farovon kelajagini ta‘min-lamog‘i va bolalarimizni shodu-xurramlikda yurishini kafolatlamog‘i kerak edi.

Sovet mustamlakachiligining barcha sirtmoqlaridan xalos bo‘lgan O‘zbekistonga birgina og‘ir asorat, ya‘ni majburiy mehnatni tugatish va bolalar mehnatiga barham berish muammosi amaliyotda boshi berk ko‘chaga kirib qoldi.

Farzandlar hali hamon majburiy mehnat zug‘umlaridan xalos bo‘lmayotgan edi. Yuqorida ta‘kidlaganidek, Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 37-moddasida ko‘rsatilgan majburiy mehnatni taqiqlan-ganligi haqidagi fikr qog‘ozda qolib ketib, kommunistik tuzumdan meros bo‘lib qolgan bu “og‘ir tosh”ni yo‘ldan olib tashlash masalasi 25 yil davomida xalqimizga yuk bo‘lib kelayotgan edi.

Prezident Sh. M. Mirziyoyev faoliyatining ilk davridayoq bu “og‘ir tosh”ni yo‘ldan olib tashlashning uddasidan chiqdi hamda yurtimiz tarixining sahifalarida uzoq vaqtlar davomida ildiz otib, farzandlarimizni o‘z domiga tortib turgan, majburiy mehnatning barcha shakllariga qarshi, o‘zining strategik va qat‘iyatli siyosati bilan kurash olib bordi va jahon hamjamiyati oldida O‘zbekistonning yuzini yorug‘ qildi.

O‘zbekiston farzandlarini o‘qishga ta‘lim-tarbiyaga yetaklovchi o‘qituvchilarimiz-ning jamiyatdagi mavqei oshirila boshlandi, jamiyatdagi barcha qatlamlar o‘z vazifa-sini aralashuvlarsiz, erkin va xolisona amalga oshira boshladi.

Yangi O‘zbekistonni qurish yo‘lida bolalar kelajagi va taraqqiyoti uchun, xech qachon ularga majburiy mehnatning asoratlari soya solmasligi uchun, 2023 yilning 30 aprelida, xalqimizning hohish-irodasiga ko‘ra, Yangi Konstitutsiya qabul qilinib, uning 44 moddasida “Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xafsizligiga, axloqi-ga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta‘lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi” deb belgilab qo‘yildi.

Xalqimiz tarixida bir asrdan beri og‘riqqa aylangan bu muammo yana qayta yuzaga kelmasligi uchun, davlatimiz va keng jamoatchilik tomonidan huquqiy va ma‘naviy kafolat sifatida, Konstitutsiyasiga zarhal harflar bilan yozib qo‘yildi va tom ma‘noda, O‘zbekistonning eng yangi tarixida sodir bo‘lgan bu olamshumul yutuqda Prezident Sh. M. Mirziyovning o‘rni va roli beqiyos bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Res pub likasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda Kons- titusiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha amaldagi tizimning samarasini oshirish maqsadida Konsti tu siyamizda bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslikka alohida e‘tibor qaratgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi 2008 yilda Xalqaro mehnat tashkilotining Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi va Jinoyat kodeks larida voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘ri sidagi talablarni buzish, ya‘ni voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga yoki axloq- odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan ishlarda foydalanish uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlik choralari belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 44-moddasida “Bolalar mehnati ning bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlani-shiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta‘lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi”, degan qat‘iy norma mustahkamlanmoqda. Paxta dalalarida yoki boshqa qishloq xo‘jaligi ishlarida, umuman, boshqa sohalarda ham bolalar mehnatidan foydalanish, ayniqsa, ularni jalb qilishning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha tizimli va qat‘iy islohotlar natijasida O‘zbekistonda bolalarning majburiy mehnati to‘liq barham topdi.

2 millionga yaqin bolalar majburiy mehnatdan ozod qilindi. Endilikda bu boradagi davlat siyosatini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamlar tashlanmoqda. Konstitutsiyamizga ilk marotaba kiritilayotgan mazkur norma mamlakatimizda ushbu sohada erishilgan yutuqlarni qat‘iy mustahkamlaydi hamda bolalar sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishlari uchun muhim huquqiy kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Ayni paytda, ushbu konstitutsiyaviy norma bolalarning sog‘ligi, xavfsizligi, to‘liq jismoniy, aqliy va ma‘naviy rivojlanishiga tahdid solmaydigan, ta‘lim olish jarayonini buzmaydigan tarzda mehnat qilishlariga to‘sqinlik qilmaydi.

Xususan, amaldagi Mehnat kodeksiga muvofiq mehnatga tayyorlash uchun umumta‘lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarining o‘quvchilarini ularning sog‘ligi, xavfsizligi, to‘liq jismoniy, aqliy va ma‘naviy rivojlanishiga tahdid solmaydigan, ta‘lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o‘qishdan bo‘sh vaqtida bajarishi uchun – ular o‘n besh yoshga to‘lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi.

**Tanch-soz’-iboralar:** Bolalar mehnati, paxta monokulturasini, keng jamoatchilik, bolalar ombudsmeni, parlament nazorati.

#### ***Foydalingan adabiyotlar:***

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: ”O‘zbekiston”. 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016.*

3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyat yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*

## **8-mavzu. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining madaniy va ekologik huquqlari**

**(2 soat)**

### **Mavzu rejasi:**

1. Fuqorolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish bo'yicha qanday yangi qoidalar kiritilishi
2. Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish
3. Qulay atrof-muhit va yashash imkoniyati

Atrof-muhit inson salomatligi va hayotiga bevosita ta'sir qiluvchi muhim omil dir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligining 20-40 foizi atrof-muhit sifati va holatiga uzviy bog'liq. Qulay atrof-muhit tabiiy zaxiralar qisqarayotgan, global iqlim o'zgarishi, ekologiya va tabiat bilan bogliq muammolar insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan hozirgi davrda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qulay atrof-muhit deganda, insonga munosib va farovon hayot kechirishga imkon beradigan, insonning jismoniy mavjudligini ta'minlaydigan, unga intellektual, axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini beradigan muhit tushuniladi. Shaxsning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi insonning asosiy fundamental huquqlaridan bo'lib, insonning barcha asosiy huquqlarini, shu jumladan yashash huquqini amalga oshirish uchun juda muhimdir. Shu munosabat bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 49-moddasida: birinchidan, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega, degan qoida mustahkamlanmoqda;

-ikkinchidan, davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi, degan hayotiy zaruratga mos norma belgilanmoqda.

Afsuski, Orolbuyi mintaqasida yuzaga kelgan global ekologik muammo 50 mln. nafarga yaqin mintaqaholisining hayot tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2018 yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilk marotaba "Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q", deb ta'kidlagan edi.

Shu bois, O'zbekistonda Orol muammosi oqibatlarini bartaraf qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Orol dengizi tubining 2,5 mln. gektarida yangi "yashil makon" yaratilmoqda.

Shuningdek, Orol va Orolbo'yidagi murakkab ekologik vaziyat, aholi genofondini muhofaza qilish, salomatligini yaxshilash hamda ushbu hududda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyaga kiritilayotgan normada Orolbo'y mintaqasining ekologik tizimini himoya qilish va tiklash, uni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan qo'shimcha choralar ko'rilishi davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida mustahkamlanmoqda. Konstitutsiyada ushbu norma belgilanishi mintqa aholisi uchun munosib yashash sharoitlarining yaratilishini va turmush darajasi jiddiy tarzda yaxshilanishini ta'minlaydi, barcha kasb egalari, birinchi navbatda ijtimoiy soha vakillari uchun qo'shimcha imtiyozlar paketi qo'llaniladi hamda tadbirkorlik tuzilmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining atrof-muhitni himoya qilishga yo'naltirilgan turli loyihalarda faol qatnashish imkoniyati paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur norma aholimiz va kelajak avlod uchun qulay va ekologik toza hududni saqlab qolish, Orolbo'y mintaqasida yashovchi aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ularning yashashi va rivojlanishi uchun qulay atrof-muhitni ta'minlashning Konstitutsiyaviy kafolatlari ni yaratmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tabiat-jamiyat tizimidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qoida-talablar xam belgilangan bo'lib, ekologiya huquqi manbalarining poydevorini tashkil etadi.

Konstitutsiyamizning 62-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muxitga extiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar"-deb, belgilanib fuqarolarning ekologik majburiyatlarini konstitutsiya darajasida mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaning 68-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, usimlik va xayvonot dunyosi xamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan okilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidadir" deb, ifodalangan bo'lib, davlat ekologik siyosatining asosiy tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Ushbu konstitutsiyaviy qoidaning ahamiyati shundaki, birinchidan, mustaqilligimizning moddiy asosini tashkil etuvchi tabiiy boyliklari xalqimizning boyligi, mulki ekanligi, ikkinchidan, tabiiy resurslardan faqat okilona foydalanish zarurligi, uchinchidan, respublikamiz tabiati davlat muxofazasiga olinganligi, ya'ni ekologik-huquqiy munosabatlarni davlat tomonidan kafolatlanishi kabi muxim tamoyillarni mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoida-talablari va tamoyillari asosida atrof, tabiiy muxitni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan okilona foydalanish va axolining ekologik xavfsizligini ta'minlashga karatilgan qonunlar qabul qilinadi.

Asosiy qonunimizda davlat ekologiya siyosatining asosiy yunalishlari belgilansa, ushbu konstitutsiyaviy qoidalarga mos ravishda qabul qilinadigan qonunlarda atrof, tabiiy muxitni muxofaza qilish, tabiiy resurslardan okilona foydalanishning talablari, mexanizmi mustahkamlanadi.

Respublikamiz mustaqilikka erishgandan sung, Konstitusiyamiz qoida-talablari asosida O'zbekiston Respublikasi ekologiya soxasida quyidagi qonunlar qabul qilindi: O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Aloxida muxofaza etiladigan tabiiy xududlar to'g'ri sida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera xavosini muxofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Usimlik dunyosini muxofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risi da"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muxofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi", O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'ri sida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastr to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Urmon to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risi da"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Xizmat va maxsulotlarni serti fikatlashtirish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Axolini va xudud larni tabiiy xamda texnogen xususiyatli favkulodda vaziyatlardan muxofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiya xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni va boshqalar.

Ushbu qonunlarda tabiatni muxofaza qilish, tabiiy ob'yektlardan okilona foydalanish va axolining ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning maqsadi, vazifasi, ob'yekt va sub'yektlari, tabiiy resurslarning huquqiy polati, ushbu soxada yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari, erkinliklari, kafolatlari va vakolatlari, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muxofaza qilish tartibi, muddati va talablari, ekologik qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik chora- tadbirlari kabi ekologik-huquqiy qoida talablari belgilangandir.

Asosiy qonunimizning XX1-bobi, 100-moddasida maxalliy davlat xokimiyat organlari vakolatlarining asosiy yunalishi sifatida - atrof muxitni muxofaza qilish kabi mas'uliyati e'tirof etilgan.

Konstitusiyadagi qoida talablar ekologik huquqiy munosabatlar tizimidagi asosiy tamoyillarni mustaxkamlaydi. Ushbu konstitusiyaviy tamoyillar asosida atrof, tabiiy muxitni muxofaza qilish tabiiy resurslardan okilona foydalanish va axolining ekologik xavfsizligini ta'minlashga karatilgan qonun, farmon, karor, nizomlar kabi me'yoriy- huquqiy xujjatlar qabul qiladi.

O'zbekiston – betakror tarixiy obidalar, madaniy meros ob'yektlariga boy o'lka bo'lib, bugungi kunda respublika bo'yicha 8 210 ta moddiy-madaniy meros ob'yekt lari mavjud. Bundan tashqari, madaniy meros ob'yektlari O'zbekiston turizm salohiyatining yetakchi yo'nalishi bo'lib,

sayyohlarning aksariyati eng avvalo tarixiy obidalarimizni ko'rish uchun tashrif buyuradi. Mamlakatimizda 200 dan ortiq xalqaro sayyohlik yo'nalishlarining 150 dan ortig'i aynan tarixiy-madaniy meros ob'yekti bilan bog'liqligi ham bejiz emas. Shu bois ularni kelajak avlod larga bezavol yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 61-moddasida "Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi", degan norma belgilanmoqda. Mazkur norma tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosni muhofaza qilish hamda undan samarali foydalanish bo'yicha davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlarini kengaytirishga asos bo'ladi. Shuningdek, mazkur o'zgartishning kiritilishi dunyo tamaddunida munosib o'ringa ega bo'lgan shonli ko'p mingyillik tariximizni o'rganish, ma'naviy va madaniy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga hamda O'zbekistonning tabiiy merosi asl holida saqlanishiga va uni kelajak avlodlarga bezavol yetkazishga xizmat qiladi.

**Tayanch-so'z iboralar:** ekologik huquqiy munosabatlar, atrof muhitni muhofaza qilish, orolbo'yini mintaqasini himoyalash va uning ustuvor yo'nalishlari, radiasiya xavfsizligi, gidrotexnik inshootlar xavfsizligi.

#### ***Foydalingan adabiyotlar:***

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O'zbekiston". 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyat yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017*

#### **9-mavzu. Inson hamda fuqorolarning huquq va erkinliklari kafolatlari (2 soat)**

##### **Mavzu rejasi:**

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratishga oid yangi normalar.
2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari va nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga oid yangi normalar.
3. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasiga insonning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash huquqi bilan bog'liq qanday qoidalar.

4. Konstitutsiyaga kiritilayotgan “har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli”, degan normaning mazmun- mohiyati.

5. Ijod erkinligi va uning natijalarini himoya qilish borasida o‘zgarishlar.

Insoniyat tamaddunining rivojlanishi doimo insonlar ijodiy faoliyati natijasi o‘laroq amalga oshgan. Barcha yangiliklar zamirida, avvalo, inson va uning aql- zakovati turganligi bois konstitutsiyalarda ushbu masalaga alohida e‘tibor qaratiladi. Amaldagi Konstitutsiyamizda asosiy e‘tibor ilmiy, texnikaviy ijod masalalariga qaratilgan bo‘lib, badiiy ijod masalasi e‘tibordan chetda qolgan edi.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 53-moddasida badiiy ijod erkinligining kafolatlanishi belgilanmoqda. Adabiyot, san‘at va madaniyatning jamiyat hayotidagi o‘rni beqiyos bo‘lib, faqat ular bilangina millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. Darhaqiqat, badiiy ijod yuqori ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bashariyat oldida paydo bo‘layotgan, biz ilgari duch kelmagan g‘oyat murakkab muammolarni bartaraf etishda, xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltirish, ayniqsa, yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

Shu nuqtai nazardan, Asosiy qonunimizda har bir shaxsga badiiy ijod erkinligining kafolatlanishi milliy adabiyot va san‘atimizning yangi asarlar va nomlar bilan boyishiga, madaniyat va ma‘naviyatimizni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur moddaga “intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi” degan yangi norma kiritilmoqda. Intellektual mulk mahsuli bo‘lgan raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar XXI asrda mamlakat iqtisodiyotini asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Bugungi kunda nomoddiy aktiv hisoblangan intellektual mulk kirib bormagan va ta‘siriga uchra magan biror soha va tarmoq qolmadi.

Intellektual mulkni muhofaza qilish, avvalo, uni yaratuvchisi bo‘lgan egasining barcha huquqlari tan olinishini, o‘z manfaati yo‘lida bemalol foydalanishini va turli tajovuzlardan himoya qilinishini anglatadi. Intellektual mulk ob‘yekti egasi uni boshqa mol-mulki singari sotish, meros qilib qoldirish, sovg‘a qilish, har qanday tarzda foydalanishga ruxsat berish yoki taqiqlash huquqiga ega.

Bugungi kunda intellektual mulk yirik daromad manbai hisoblanadi. Masalan, Facebook ijtimoiy tarmog‘i asoschisi Mark Sukerberg, Garri Potter haqidagi kitoblar muallifi Djoan Rouling intellektual mulkini tijoratlashtirishi orqali yirik kapital egalariга aylanishgan. Mazkur norma kiritilishi intellektual mulkning, boshqa ko‘char va ko‘chmas mol-mulk turlari kabi, Konstitutsiya darajasida himoyasini ta‘minlaydi. Eng muhimi, intellektual mulk egalari – yozuvchi, shoir, rassom, san‘atkorlar, olimlar, tadbirkorlik sub‘yektlari va boshqalarni o‘zlari yaratgan intellektual mulk natijasiga nisbatan huquqlarini kafolatlaydi.

Har kimga o‘z huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning, mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan

sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Shuningdek, har bir shaxs O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq, o‘z huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tomonidan himoya qilinishi uchun murojaat qilishga haqli ekanligi nazarda tutiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 55-moddasida “Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli”, degan norma mustahkamlanmoqda. Ushbu qoidaning mazmun- mohiyati shundaki, fuqarolar o‘z buzilgan huquq va erkinliklarini, o‘zgalar huquqlarini buzmaganda, mustaqil himoya qilish huquqiga ega. Mazkur huquqni amalga oshirishning yagona sharti – bu fuqarolar tomonidan o‘zini himoya qilishda qo‘llaniladigan usullar yoki choralarning qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan bo‘lishidir. Masalan, Jinoyat-prosessual kodeksiga ko‘ra, surishtiruvchi va tergovchi jinoiy ta‘qib ostidagi shaxsning ayblovdan himoyalaniishi huquqini ta‘minlash doirasida qonunda ko‘zda tutilgan barcha usul va vositalardan foydalanishi uchun real imkoniyat yaratishi shart. Lekin aslida xalqaro standart mazmuniga binoan, shaxs o‘zini qonunda taqiqlanmagan har qanday usul va vositalar orqali himoyalashi mumkin. Ya‘ni bunda “nimaiki qonun bilan taqiqlanmagan bo‘lsa, bunga ruxsat berilgan” xalqaro qoidasi amal qiladi.

Mazkur normaga o‘xshash qoidalar Ruminiya, Indoneziya kabi davlatlar konstitutsiyalarida ham o‘z aksini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bunday norma kiritilishi, o‘z navbatida, buzilgan huquqni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday usullar bilan, o‘zgalarning huquq va manfaatlariga daxl qilmagan holda himoya qilishni hamda har bir fuqaroning o‘ziga tegishli bo‘lgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqining kafolatlanishi odil sudlovning ajralmas elementi hisoblanadi.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 55-moddasida insonning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash huquqini samarali amalga oshirishga qaratilgan normalar mustahkamlanmoqda. Mazkur qoidalarning Asosiy qonunimizga kiritilishi nima beradi? Birinchidan, har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanmoqda.

Agar normaning amaldagi tahriri faqat davlat organlari va jamoat tashkilotlarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishni nazarda tutsa, endilikda boshqa tashkilotlar, jumladan xususiy tashkilotlarni ham qamrab olmoqda. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlarning nafaqat

g'ayriqonuniy xatti-harakatlari, balki g'ayriqonuniy qarorlari ustidan ham sudga shikoyat qilish imkoniyati berilmoqda. Ikkinchidan, har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqini kafolatlovchi norma belgilanmoqda.

Har qanday shaxs buzilgan huquqi yoki qonuniy manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda to'g'ridan- to'g'ri umumyurisdiksiya yoki ma'muriy sudga murojaat qilish huquqiga egaligining konstitutsiyaviy kafolatlanishi inson huquqlari himoyasini yanada kuchaytiradi. Ushbu himoyaning samaradorligini ta'minlash uchun esa sudlar shikoyatlarni qat'iy prosessual tartib-qoidalarga tayanib, oqilona muddatlarda, tenglik, tortishuv va adolat prinsiplari asosida ko'rib chiqishlari lozim.

Bunday normalar Italiya, Portugaliya, Serbiya kabi davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Mazkur normaga kiritilayotgan o'zgarishlar inson huquqlarini sud orqali himoya qilish doirasini kengaytirishga, nafaqat davlat organlari, balki boshqa xususiy tashkilotlar tomonidan inson huquqlarini buzish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarda shaxs huquq va erkinliklarining muhofaza etilishi huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. Shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 55-moddasida "Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega", degan adolatli norma mustahkamlanmoqda.

Konstitutsiyamizga kiritilayotgan ushbu norma ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari tufayli shaxslarga moddiy va ma'naviy zarar yetkazilishi holatlari uchrab turadi. Masalan, davlat organlarining noqonuniy qarorlari sababli fuqarolarning uy-joylari va boshqa mulklarining asossiz buzilishi ularning haqli e'tiroziga sabab bo'ladi.

Bunday sharoitda fuqaro yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan to'liq qoplanishini talab qilish huquqiga ega. Shu bois amaliyotda sudlar tomonidan fuqarolarning foydasiga davlat organlarining qonunga zid bo'lgan ko'plab qarorlari bekor qilinib, yetkazilgan zarar qoplanmoqda. Birgina 2022 yilda 4645 ta davlat organlari qarorlari sud tomonidan haqi qiy emas, deb topilgan va yetkazilgan zarar undirilgan; ikkinchidan, davlat organlari yoki ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari yoki harakatsizligi tufayli fuqaroga yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi ta'minlanadi.

Masalan, amaliyotda surishtiruv yoki tergov jarayonida mansabdor shaxslar tomonidan fuqaroga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala

natijasida uning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar ham davlat tomonidan qoplab beriladi. Shu bilan birga, davlat fuqaroga to'lab berilgan mablag'ni zarar yetkazgan mansabdor shaxsdan undirish choralari ko'radi. Shu kabi normalar Fransiya, Bolgariya, Vengriya kabi davlatlarning konstitutsiyalarida o'rin olgan.

Ushbu normaning belgilanishi, birinchidan, davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan shaxslarga nisbatan g'ayriqonuniy qaror yoki xatti-harakatlar sodir etilishining oldini oladi, ikkinchidan, shaxslarga yetkazilgan zararni o'z vaqtida va to'liq qoplab berilishini ta'minlaydi, uchinchidan, yetkazilgan zararni mansabdor shaxslar shaxsiy mablag'i hisobidan qoplashiga majbur qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari va nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga oid qanday yangi normalar belgilanmoqda. Ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand aholini va nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular uchun to'siqsiz muhit yaratish va jamiyatga integratsiyasini ta'minlash ijtimoiy davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalariga yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar hamda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar kiradi.

Shu bois BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi talablariga muvofiq, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 57-moddasida quyidagi qo'shimchalar kiritilmoqda: birinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilanmoqda.

Amaldagi Konstitutsiyamizda ushbu himoya faqat voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarga tatbiq etilar edi, endilikda ushbu ro'yxat kengaytirilmoqda; ikkinchidan, davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'radi, degan keng qamrovli norma kiritilmoqda.

Ushbu norma bilan aholining yuqoridagi toifalariga tegishincha imtiyozli uylar berish, bepul tibbiy jihozlar, protez-ortopediya buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, yetim bolalar uchun oliy ta'limda bepul o'qish imkoniyatini yaratish, pensiya va nafaqalar bilan ta'minlash, ijtimoiy xizmatlar turi va sifatini oshirish choralari ko'rish davlatning konstitutsiyaviy majburiyatiga aylanmoqda; uchinchidan, davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalar ob'yektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning

ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi, degan insonparvar norma mustahkamlanmoqda.

Bu esa davlatga nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniyat markazlari, kino va konsert zallari, sirk, teatrlarga kirish, shuningdek davlat xizmatlari, tibbiy, ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda imtiyozlar, qulayliklar yaratish, ularni imtiyozli asosda ishga joylashish va ta'lim olishlari uchun tashkiliy-huquqiy choralar ko'rish majburiyatini yuklamoqda. Pirovardida ijtimoiy ehtiyojmand aholi va nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam berish, hayotdan roziligini oshirishga xizmat qiladi.

Jamiyat va davlat hayotida xotin-qizlar va erkak- larning teng huquqliligini, shuningdek, xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 58-moddasida "Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi", degan norma mustahkamlanmoqda.

Xalq farovonligi, tinchligi hamda iqtisodiy barqarorlikda erkak va ayolning teng huquqliligi muhim o'rin tutishini e'tiborga olsak, gender tenglikni ta'minlash vazifasining davlat zimmasiga yuklatilishi barqaror rivojlanishning zarur talabidir. Shu kabi normalar Germaniya, Irlandiya, Italiya kabi davlatlar konstitutsiyalarida ham mavjud.

2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasiga ko'ra, gender tenglik bu – siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, sport va boshqa sohalarda xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini ta'minlashdir. Jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda gender tenglikning ta'minlanishi xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, qonunlar va turli qarorlar qabul qilinishida ishtirokini yanada kengaytirish imkoniyatini beradi.

Masalan, hozirda boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 33 foizni, Oliy Majlisda esa 32 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, gender tenglik ta'lim olish, mehnat qilish, tadbirkorlik, ijod qilish, madaniyat sohalarida ham ta'minlanishi xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshiradi.

Ayni vaqtda ham xotin-qizlarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida 82 foizni, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at sohalarida 72 foizni, sanoatda 38 foizni, tadbirkorlikda 35 foizni, oliy ta'limda 46 foizni tashkil etishi ham sohalar rivojidadagi egallagan munosib o'rnidan dalolatdir.

Har qanday xalqning yetuklik darajasini, avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab beradi. Shu bois ularning ta'lim olishlari, ilm-fan bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish davlatning alohida vazifasiga aylandi.

Natijada, birgina 2022 yilda oliy o'quv yurtlariga qabul qilingan talabalarning 49,9 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Mazkur normaning kiritilishi xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, davlat hokimiyatidagi lavozimlarga kengroq jalb etish imkoniyatini yaratadi.

Xalq farovonligi, jamiyat tinchligi hamda iqtisodiy barqarorlikda erkak va ayolning teng huquqliligi muhim o'rin tutishini e'tiborga olsak, gender tenglikni ta'minlash vazifasining davlat zimmasiga yuklatilishi barqaror rivojlanishning zarur talabidir.

**Tayanch so'z-iboralar:** gender tenglik, harakatlar strategiyasi, iqtisodiy barqarorlikda erka va ayol teng huquqligi, gender tenglikni ta'minlash.

Mavzu yuzasidan savol-topshiriqlar:

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratishga oid qanday yangi norma belgilanmoqda?
2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari va nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga oid qanday yangi normalar belgilanmoqda?
3. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya-miz loyihasiga insonning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash huquqi bilan bog'liq qanday qoidalar kiritilmoqda?
4. Konstitutsiyaga kiritilayotgan "har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli", degan normaning mazmun-mohiyati nimadan iborat?

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O'zbekiston". 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyat yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*

#### **10-mavzu: Fuqorolarning burchlari (2 soat)**

## **Mavzu rejasi:**

1. Soliq siyosatining konstitutsiyaviy asoslari qanday mazmundagi yangi normalar.
2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida bolalarni to‘laqonli va bar-kamol voyaga yetkazish bo‘yicha ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar zimmasiga yuklangan majburiyatlar.
3. Konstitutsiyada davlatga bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha yuklangan majburiyatlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 29 yilligi munosabati bilan yo‘llagan tabrigida “Asosiy qonunimizda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va maqomini kons- titutsiyaviy jihatdan mus tah kamlash” davr talabi ekanligi qayd etilgan edi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 9 mingga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlar, 9 ming- dan ortiq o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat yuritmoqda. Fuqarolik jamiyati insti- tutlari tushunchasi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan bo‘lib, lekin normativ-huquqiy hujjat larda mazkur institutning tushunchasi berilmagan, ular faoliyatiga oid huquqiy kafolatlar belgilanmagan edi.

Jahon bankining “Fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan maslahatlashuv” ko‘rsat masida “fuqarolik jamiyati instituti” tushunchasini qo‘llash tavsiya qilingan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 69-moddasida “fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining aso- sini tashkil etadi”, degan norma mustahkamlanmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari mamlakatda demokratiya, huquqiy davlat va shaxs erkinliklarini ta‘minlashning muhim kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Ular jamiyat a‘zolarining fuqarolik faolligi, milliy o‘z-o‘zini anglashi, siyosiy mada niyati va yuksak ma‘naviyatini yuksaltirishga ko‘maklashish, mus taqil fikrlash, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, o‘z kelajagini o‘z xohishi bilan qurish istagini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tabiiyki, ushbu institut vakillari bugungi va ertangi kunimizga har qachongidan ham mas‘uliyat bilan qaraydigan, xalqimizning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishda amaliy ishlari bilan yordam berishga shay tashkilotlar majmuasi sifatida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishonchli hamkor bo‘la oladi.

Mazkur normaning Konstitutsiyada belgilanishi fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini bevosita tartibga soluvchi hamda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga doir qonunchilik hujjatlarining tizimlashtirishga xizmat qilib, bosqichma bosqich davlat funksiyalarini ushbu institutlarga berib borish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirishga turtki bo‘ladi.

O‘zbekistonda azal- azaldan oila va farzand yuksak qadrlanadi. Shu ma‘noda ota- onalar zimmasiga bolalarni jismonan va ma‘nan barkamol etib tarbiyalashga, ta‘lim berishga oid mas‘uliyat yuklatilgan.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 77-moddasida “Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburlar”, degan norma belgilanmoqda. Ushbu norma Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya talablariga to‘la muvofiqdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar zimmasiga quyidagi majburiyatlar alohida belgilab berilmoqda: birinchidan, ota-onalar o‘rnini bosuvchi shaxslar tushunchasi kiritilishi bilan voyaga yetmaganlarga mas’ul bo‘lgan shaxslar doirasi kengaytirilmoqda.

Voyaga yetgunga qadar yetim va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish va unga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish maqsadida homiy yoki vasiy etib tayinlangan shaxslar ota-onalar o‘rnini bosuvchi shaxslar hisoblanadi.

Ularning zimmasiga bolalarga o‘z farzandidek munosabatda bo‘lib, ularni ko‘z-qorachig‘idek asrash, hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun ta’lim-tarbiya berish majburiyati konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlanmoqda;

ikkinchidan, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning farzandlari oldidagi vazifalari kengaytirilmoqda. Amaldagi Konstitutsiyada ota-onalar farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar faqat boqish va tarbiyalashga majbur edi.

Endilikda ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar farzandlarini boqish va tarbiyalash bilan birga, ularning ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majbur ekanliklari belgilanmoqda.

Bundan maqsad farzandlar ta’lim va tarbiyasida ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning mas’uliyati va javobgarligini oshirishdir. Afsuski, hayotda bolalarga ta’lim-tarbiya berish, moddiy ta’minlash, himoya qilish, ularning sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilmaydiganlar ham uchraydi. Bunday shaxslar ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ushbu normaning kiritilishi natijasida farzandlikka olingan shaxslarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishni kuchaytirishga, voyaga yetmaganlarning ta’lim olishi, sog‘lom va barkamol rivojlanishi bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlar yaratilishiga va eng muhimi, farzandlarni barkamol etib voyaga yetkazishda ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning javobgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Bolalar – kelajagimiz egalari ekan, ularning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish zarurdir. Shu bois mamlakatimizda bolalarning manfaatlarini birinchi navbatda ta’minlash prinsipi asosida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bolalarni doimiy ravishda davlat himoyasi va g'amxo'rligi ostida bo'lishini ta'minlash maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 78-moddasiga "bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir", degan mazmundagi norma kiritilmoqda. Aslida "bola" deganda kimni tushunishimiz kerak?

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va milliy qonunchiligimizga muvofiq, 18 yoshga to'lgunga qadar bo'lgan shaxs – bola hisoblanadi. Agar shunga asoslanadigan bo'lsak, bugun yurtimiz aholisining qariyb 12,1 mln nafari bolalardan iborat bo'lib, ular mamlakatimiz aholisining 35 foizini tashkil etmoqda.

Konvensiyaning 3-moddasida "bolalarga nisbatan amalga oshiriladigan barcha harakatlarda, ular davlat yoki xususiy ijtimoiy himoya muassasalari, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan amalga oshirilishidan qat'i nazar, bolaning eng yaxshi manfaatlari birinchi navbatda e'tiborga olinadi", deb belgilangan.

Bolalarning manfaatlarini ta'minlash borasidagi mazkur yangi konstitutsiyaviy normalar yuqoridagi Konvensiya qoidalariga ham mosdir.

Mazkur konstitutsiyaviy normaga muvofiq endilikda davlat:

-bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, himoya qilish uchun qonunchilik va amaliyotni takomillashtiradi, shu orqali nafaqat bolalar bilan bog'liq sud jarayonlari, balki ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarida bolalarning eng yaxshi manfaatlari hisobga olinishini ta'minlaydi;

– bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun har bir shahar, tuman, mahalla va maktabda sport maydonchasi yoki sport zalini tashkil etish, turli sport to'garaklarining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish kabi choralarni ko'radi;

– bolalarning aqliy rivojlanishi uchun maktab va maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilash, bolalarga mo'ljallangan adabiyot, o'quv va multimedia, Internet dasturlarini tayyorlash, kutubxonalarining kitob fondini boyitish,

Ilmiy-texnik to'garaklarni ko'paytirish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish kabi tadbirlarni amalga oshiradi;

– bolalarning madaniy rivojlanishi uchun ularga mo'ljallangan san'at to'garaklarini faollashtirish, teatr va konsert repertuarlarini ko'paytirish, muzey va madaniy ko'rgazmalarga maktab o'quvchilari ko'proq kirishi uchun sharoitlarni yaratadi.

Mazkur normani Asosiy qonunga kiritilishi yurtimiz kelajagi bo'lgan bolalarni sog'lom, zukko, zehni bo'lib ulg'ayishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

**Tayanch-soʻz iboralar:**Konstitutsiyada belgilangna burchlar, taixiy, maʼnaviy , madaniy ilmiy va tabiiy merosni davlat tomonidan muhofza qiliniinishi, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlish, soliq va yigʻimlarni vqtida toʻlash, vatanni himoya qilish.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Soliq siyosatining konstitutsiyaviy asoslari qanday mazmundagi yangi normalar bilan boyitilmoqda?
2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida bolalarni toʻlaqonli va barkamol voya ga yetkazish boʻyicha ota-onalar va ularning oʻrnini bosuvchi shaxslar zimmasiga qanday majburiyatlar yuklanmoqda?
3. Konstitutsiyada davlatga bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash boʻyicha qanday majburiyatlar yuklatilmoqda va uning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "Oʻzbekiston". 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyat yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga koʻtaramiz. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.*

**11-12-mavzu: Oʻzbekiston Konstitutsiyada davlat hokimiyatini amalga oshirishga doir normalar (4 soat)**

**Mavzu rejasi:**

1. Konstitutsiyaviy darajada Qonunchilik palatasi deputati bir vaqtning oʻzida boshqa vakillik organi deputati boʻlishi taqiqlanishining zarurati
2. Oliy Majlis palatalarining konstitutsiyaviy vakolatlariga Oʻzbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi milliy maʼruzani eshitish vakolatining kiritilganligi

3. Parlament tekshiruvi institutini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlashning ahamiyati
4. Chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik vakolat- xonalar rahbarlarini tayinlash va ularni nazorat qilish bo'yicha Senatning konstitutsiyaviy vakolatlari

MAVZU BAYONI: Konstitutsiyaning ayrim me'yorlarini ko'rib chiqishga mamlakatda amalga oshiriladigan isloxotlarning chukurlashish yoki davlat xokimiyati oliy organlari to'zilishini yanada takomillashtirish zaruriyati sabab bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimi va foaliyatining doimo takomillashtirib borishi, davlatimiz siyosatining asosiy mazmunini tashkil etmokda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunchilik tashabbusi huquqiga egadir.

2000 yil 25 may kuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq, ikkinchi sessiyasida: "Men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga utish taklifini kiritmokchiman ya'ni, biz 2004 yilda bo'ladigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib, tashkil etishimiz lozim. Bunda quyi palata - Oliy Majlis partiyalar vakillari va mustaqil deputatlardan saylanadi.

Siyosiy partiyalar va axoli yigilishlari unga o'z vakillarini o'tkazadi, ular parlamentda doimiy ravishda ishlaydi. Yuqori palata tarkibini viloyat, shaxar va tumanlardan maxalliy kengashlarga saylangan deputatlarning vakillari tashkil etadi. Misol uchun qashkadaryo viloyat kengashiga saylangan deputatlar shaxar va tumanlarda saylangan noiblar xisobidan viloyat miqyosidagi yigilishlarda ana shu kengashlarning olti-yetti nafar eng ishonchli vakili mamlakat parlamentining yuqori palatasiga saylanadi.

Ular yuqori palatada shu viloyatning manfaatlarini ximoya qiladi" deb ta'kidladi. Yuqori palataga saylangan vakillarning asosiy vazifasi quyi palata tayyorlangan qonunlarni ko'rib chiqish va shunga mos ravishda o'zlarining karorlarini qabul qilishligi, mamlakatimizning barcha xududlariga teng ko'z bilan karab, ana shu xududlarning vakillari orqali xalqining manfaatlarini bir xilda ximoya qilishi zarurligi haqida to'xtaldi.

Shundan sung bu taklif yuzasidan, deputatlarning fikr va muloxazalari urganib chiqilib, 2001 yil 6 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq, yettinchi sessiyasida deputatlar bir ovozdan O'zbekiston xalqining fikrini aniklash maqsadida referendum o'tkazish to'g'risida karor qabul kildi, 2002 yil 27-yanvar kunini umumxalq referendumini kuni deb e'lon kildi. Referendumda ovoz berish byo'lleteniga quyidagi mazmundagi savollar kiritildi;

Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Parlamentini ikki palatali qilib, saylanishiga rozimisiz?

Siz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitusiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib, o‘zgartirishga rozimisiz?

O‘zbekiston xalqi, Oliy Majlis va Prezident faoliyatini takomillashtirishni bir ovozdan tasdiqladi. Endigi vazifa O‘zbekiston xalqining xoxishini 2004 yilga kadar tadbik etilishining huquqiy asoslarini yaratish lozim.

Hozirgi kunlarda bu masalaning xamma uchun ma’kul bo‘lgan yechimini topish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi rahbarligida juda ko‘p ilmiy-ukuv muasasalari, davlat va nodavlat tashkilotlari bosh kotirmokdalar.

Har biri o‘z salohiyatidan kelib chikib milliyligimizga mos bo‘lgan referendum natijalari talabalarini xal etish imkoniyatiga egadirlar. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining navbatdagi sakkizinchi sessiyasida bu masalaning xal etilishini dastlabki, muxokamasi bo‘lib: 2002 yil 4 aprelda O‘zbekiston Respublikasining "Referendum yakunlari xamda davlat xokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida" gi Konstitusiyaviy qonuni qabul qilindi.

Bizga ma’lumki, 1993 yil 28 dekabrda birinchi bor Konstitusiyamizga o‘zgartirish va kushimcha kiritilgan bo‘lib, "O‘zbekiston Ryespublikasining Konstitusiyasiga o‘zgartirishlar va kushimchalar kiritish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining qonunida shunday deyilgan edi: “O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 77-modda 1- qismidagi “150 nafar deputatdan” degan s o‘zlar “deputatlardan” degan so‘z bilan almashtirilsin”

Yuqoridagi Konstitusiyaviy qonun asosida 2003 yil 24 apreldagi "O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o‘zgartirishlar va kushimchalar kiritish to‘g‘risida" gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga muvofik Konstitusiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o‘zgartirishlar va kushimchalar kiritildi.

Jumladan, Konstitusiyamizning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deb nomlangan XVIII bobi ilgari bir palatali parlamentga bag‘ishlangan bo‘lsa endilikda mazkur bobda ikki palatali parlament O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senati (yuqori palata) ga bag‘ishlangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 91-moddasida ilgari surilgan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi xokimiyatni amalga oshiradi” deb nomlangan qoida mavjud edi.

Hozirda mazkur 91- moddada quyidagicha qoida mavjud: “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi xokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan-qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati-besh yil ”.

Konstitusiyamizning O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti bobi ya’ni XIX bobiga xam o‘zgartirish kiritildi. Xususan, ilgari Konstitusiyamizning 89-moddasida quyidagi norma mavjud edi: “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi xokimiyat boshlig‘idir”.

2003 yil 24 aprelda mazkur moddaga o‘zgartirish kiritilib, “O‘zbekiston Res-publikasining Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Maxkamasining Raisi xisoblanadi” qoidasi chiqarib tashlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yuqori palatasi Senatga o‘tkazildi. 93-modda 6-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga takdim etadi;

93-modda 23-bandiga ko‘ra esa, “amnistiya to‘g‘risidagi xujjatlarni qabul qilish xdkida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga takdimnoma kiritadi va O‘zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan xukm qilingan shaxslarni afv etadi”. Ilgari O‘zbekiston Respublikasi chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash va amnistiya to‘g‘risida xujjatlarni qabul qilish bevosita Prezident vakolatiga kiritilgan edi.

Konstitusiyamizning Vazirlar Maxkamasi ya’ni XX bobiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ilgari 98-moddada ko‘ra, “Vazirlar Maxkamasi tarkibini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tuzadi va u Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi” degan qoida mavjud bo‘lgan bo‘lsa, xozirda 98-modda ikkinchi qismida “Vazirlar Maxkamasi tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining takdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Maxkamasining a‘zolari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri takdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi” degan qoida mavjud.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri vakolatlari kengaytirilib, 98- modda 5-qismiga “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Maxkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga raxbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi, Vazirlar Maxkamasining majlislariga raislik qiladi, uning karorlarini imzolaydi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirigiga binoan xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi nomidan ish ko‘radi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, karorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Maxkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Maxkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan karorlar qabul qilishga, shuningdek Vazirlar Maxkamasi karorlari va farmoyishlarini, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqli” degan qoida kiritildi.

Shuningdek, mazkur kiritilgan o'zgartirish va kushimchalardan sung O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziriga O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Vazirlar Maxkamasi a'zolarini tasdiqlash uchun takdim qilish vakolati berildi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2005 yil 28 yanvardagi Oliy Majlis palatalarining kushma majlisida suzlagan "Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox qilishdir" mavzusidagi ma'ruzasidan kelib chikadigan asosiy vazifalar.

Oliy Majlis Senatining konstitusiyaviy - huquqiy asoslari: Oliy Majlisning yuqori palatasi - Senatning huquqiy makomi. Senat xududiy vakillik instituti sifatida. Oliy Majlis Senatining shakllanish tartibi va uning tarkibi. Senatning vakolatlari. Senatning davlat xokimiyati organlari bilan uzaro munosabatlari. Senat faoliyatini tashkil etish va uning tarkibiy tuzilmalari.qonunchilik palatasining konstitusiyaviy- huquqiy makomi siyosatda, iktisodda, ijtimoiy rivojlanishda, fanda, madaniyatda, tabiatni muxofaza qilishda va boshqa jabkalarda Siyosiy institutlarning erkinligi va qiziqishlari qonunda himoya qilinadi. Jamoat birlashmalari madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqlarda, fuqarolarning oldiga qo'ygan maqsadlarini himoya qilish uchun tashkil topadi kamda davlatni boshqaruvda katnashish uchun, konstitusiyaviy erkinliklarni rivojlantirish uchun davlat va jamiyat ishlarida o'z manfaatlarini himoya qilish uchun tuziladi.

"O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi qonunning, 8-moddasida, jamoa mulklari quyidagi shakllarda bo'lishi kursatilgan; oilaviy mulk, mahalla mulki, jamoat tashkilotlari, diniy tashkilotlar va boshqa birlashmalarning mulkini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunning 18-moddasida jamoat birlashmalari mulki aniklab berilgan.

Jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ixtiyoriy, ular a'zolarining teng huquqliligi, qonuniylik va oshkoralik asosida tashkil topadi.

Jamoat birlashmalarining faoliyat kursatishi quyidagi kolatlarda yo'l quyilmaydi: axlok-odob qoidalarini bo'zi lishiga olib kelsa, noqonuniy maqsadi bilan konstitusiyaviy tuzumni o'zgartirishga; respublika hududi va birligini bo'lib tashlashga; Qoraqolpog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi aloqalarni bo'zi sh uchun tashviqot olib borsa; zo'rlik, ijtimoiy kelishmovchilikn tashkillashtirish uchun tashvikotlar olib borishsa; turli, millatlar o'rtasida bir millatni yuqori quyish evaziga kelishmovchilik keltirib chiqarsa va jamiyatni bo'lib tashlash uchun dinga karshi tashvikot olib borsa; xarbiylashtirilgan birlashmalarni tashkil qilish kamda, diniy partiya xarakterida bo'lgan boshqa davlat tuzilmasidagi diniy partiya filiallarini tuzish qonunchilikda kat'iyan man qilinadi. Shuningdek, jamoat birlashmalari demokratiyaga karshi, davlat hokimiyati va boshqaruvida o'z vakillarini qonuniy quyish yo'li bilan hokimiyat vakolatiga ega bo'lib qonunlarni ma'naviy kuch bilan

qabul kildirish va davlatning demokratik yo‘lidan foydalanib, davlat hokimiyati va boshqaruvida o‘z organlarini tashkil qilish kat’iyan man qilinadi.

Jamoat birlashmalarining tashkil topish faoliyat tamoyillari Konstitusiyaning XIII bobi bo‘limida muhammal yoritilgan.

Jamoat birlashmalarining boshqaruv apparati uzlari to‘g‘risidagi qonun va Mehnat kakidagi qonunlari asosida, shuning bilan ijtimoiy ta‘minot va fuqarolarning ijtimoiy sug‘urta kakidagi qonunlarda muhammal tashkil topish tartibi qoidalari va ular faoliyatini yo‘nalishlari berilgan.

**Tayanch so‘z iboralar:**Oliy Majlis, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat, quyi palata, spiker, jamoat birlashmalari, partiyalar, qonunlarni qabul qilish tashabbusi, qonun ijodkorligi, qaror, farmon, farmoyish. Qonunlar va qarorlar ijrosini ta‘minash, ijroiya hokimiyat

### **Mavzu yuzasidan savol-topshiriqlar:**

1. Konstitutsiyaviy darajada Qonunchilik palatasi deputati bir vaqtning o‘zida boshqa vakillik organi deputati bo‘lishi taqiqlanishining zarurati nimada?
2. Oliy Majlis palatalarining konstitutsiyaviy vakolatlariga O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma‘ruzani eshitish vakolatining kiritilayotganligi nima bilan bog‘liq?
3. Parlament tekshiruvi institutini konstitutsiyaviy darajada mustah- kamlashning ahamiyati nimada?
4. Chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik vakolat- xonalar rahbarlarini tayinlash va ularni nazorat qilish bo‘yicha Senat qanday konsti- tutsiyaviy vakolatlarga ega bo‘lmoqda?
5. Konstitutsiyaviy darajada Qonunchilik palatasi deputati bir vaqtning o‘zida boshqa vakillik organi deputati bo‘lishi taqiqlanishining zarurati nimada?
6. Oliy Majlis palatalarining konstitutsiyaviy vakolatlariga O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma‘ruzani eshitish vakolatining kiritilayotganligi nima bilan bog‘liq?

### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: ”O‘zbekiston”. 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyat yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi*

### **13 mavzu: Oila, yoshlar va bolalar**

#### **Mavzu rejasi:**

1. Oila tushunchasi.
2. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar
3. Bolalar huquqlarini himoya qilish
4. Onalik va bolalik siyosati
5. Yoshlarga e'tibor va davlat siyosati

Shaxsning barkamol bo'lishida bilim olish huquqi katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Konstitusiyasining 50-moddasida shunday deyilgan: Har kim ta'lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir.

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat kurish yo'lidan borar ekan, uning asosiy vazifasi xar tomonlama barkamol erkin shaxslarni kamol topishiga shart- sharoit yaratish va ta'minlash xisoblanadi. Shuning uchun xam ta'lim soxasiga davlat siyosati darajasida katta e'tibor berilmokda.

1948-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjakon Deklaratsiyasi prinsiplariga asosan O'zbekiston Respublikasi shaxsning bilim olish huquqini amalga oshirilishining karakatdagi samarali huquqiy mexanizmini yaratib berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis ushbu Deklaratsiyaga, shu jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar va "Iqtisodiy , ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida" gi xalqaro paktlarga kushilish to'g'risida kator karorlar qabul kildi. Bilim olish huquqiga tegishli bo'lgan xalqaro hujjatlarda (misol uchun, 1960 yil 14-dekabrda YUNESKO tomonidan qabul qilingan Ta'lim sokasini cheklashga karshi ko'rash Konvensiyasi) "Ta'lim" termini ta'limning barcha turlariga va bosqichlariga tegishli bo'lib, bilimning sifati va darajasini, uning qanday sharoitlarda olib borilishi va unga keng yo'l ochish masalalarini kamrab oladi. Xalqaro huquq normalariga muvofik boshlangich ta'lim bepul va majburiy ekanligi, o'rta ta'lim va uning turli shakllari umumiyiligini ta'minlash, oliy ta'limni barcha o'z qobiliyati asosida olishi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun mazmunini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida Uzluksiz ta'lim tizimi yaratilib, uning asosida shaxs ta'lim olishining huquqiy mexanizmlari amalda mustakkamlanadi.

Ta'limning yagona tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha tarbiya;
- umumiy ta'lim;
- maktabdan tashqari ta'lim;
- o'rta maxsus va kasb-kunar ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarning kasbiy malakasini oshirish va ularni kayta tayyorlash;
- oiladagi ta'lim;
- mustaqil ta'lim;

Ta'lim turlari va shakllarining turli-tumanligi shaxsning ta'lim olishga bo'lgan talab va ehtiyojlarini to'la kondirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun da xar bir shaxs dini, tili, irqi, yashash joyi, millati, kelib chiqishi va kayerda ishlashidan kat'iy nazar teng ta'lim olish huquqiga ega deb kursatib utiladi. Ta'lim olish huquqining mazmuni shundaki, O'zbekiston Respublikasi xar bir fuqarosiga ta'lim va tarbiyaning barcha kurinishlaridan teng foydalanish imkoniyatlarini kafolatlaydi. Ta'lim olish huquqini amalga oshirishga mavjud kuchli moddiy texnika bazasi imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining asosiy maqsadlaridan biri fuqarolik jamiyati kurish, uni xar tomonlama rivojlangan, mustaqil va barkamol shaxslardan iborat bo'lishini ta'minlashdan iborat. Davlat faoliyatining ustivor yunalishi xar bir insonning qobiliyatiga yarasha ta'lim olishi va uni jamiyat foydasiga, tarrakkiyotiga xizmat qilishini ta'minlashga karatilgan. Texnika va fanning yuksak darajadagi rivojlanishi xar bir kishi bilimini yuqori sifatda bo'lishini talab kilmokda.

Shu bois kuchli ijtimoiy siyosat yo'nalishlaridan biri kisoblangan mamlakatimizda bepul ta'lim berish siyosatining amalga oshirilayotgani yuksak kadriyatlarimizdan biridir. Bunday deyishimizga sabab, rivojlangan davlatlarning barchasi kam shu tarika bepul oliy va maxsus ta'lim siyosati olib borish imkoniyatiga ega emas.

Davlat tomonidan iktidorli ukuvchi va talabalarni kullab- kuvvatlash, ularga kerakli bilim saviyasini oshirish imkoniyatini yaratish, bilim olishni ragbatlantirish mukim akamiyat kasb etadi. Buning uchun mamlakatimizda bir kancha turdagi stipendiyalar, fondlar, bolalar madaniyat uylari tashkil etilgan.

O'zbekiston Konstitusiyasi xar bir insonning kayerda yashashidan kat'iy nazar, unga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligini va ma'naviyat yutuklaridan foydalanishini kafolatlaydi.

"Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuklaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga gamxurlik qiladi." (Konstitutsiyaning 53-moddasi). 1966-yil 4-noyabrda qabul qilingan Xalqaro madaniy xamkorlik qilish prinsiplari Deklaratsiyasida: "Har bir madaniyat o'z kadr - kimmatiga ega, uni saklash va xurmat qilish lozim", degan so'zlar bitilgan.

O'zbekiston boy madaniy merosga ega. Konstitutsiyamiz madaniy boyliklarimizdan xar bir kishining foydalanish huquqini kafolatlaydi. Madaniyat deganda inson tomonidan yaratilgan barcha boyliklar, yutuklar yigindisi tushuniladi va u ijtimoiy xayotda ko'pkirrali xususiyatga ega.

Madaniyatning tarkibiy qismlarini fan, ta'lim va san'at tashkil qiladi. Adabiy, musikiy, badiiy asarlar va xalq eposi, ilmiy nazariya va xunarlar madaniyat fenomeniga kiradi. Har bir madaniyat elementi xalq xayotining u yoki bu kurinishini o'zi da aks ettiradi. Har birimizning san'at, kino, adabiyot, musika dunyosidan baxramand bo'lish huquqimiz asosiy qonunimizda mustaxkamlanadi. Barcha uchun teatr, mo'z yey, kutubxona va arxitektura yodgorliklari eshiklari xech bir tusiksiz Ochiqdir. Har bir shaxs istagan fan va texnika soxasi bilan shugullanishi mumkin. Buni davlatimiz huquqiy, tashkiliy, moddiy va siyosiy jixatdan kafolatlaydi.

Xalqimiz tarixidan chuqur o'rin olgan va uzoq vaqtlar davomida yechimi kutilayotgan muammolaridan biri, bolalar va yoshlar huquqi bilan bog'liq jiddiy masala bu yurtimizda majburiy mehnatni tugatish va bolalar mehna-tiga barham berishdek masalaga Prezident Sh. M. Mirziyoyev faol jamoatchilikning diqqatini qaratdi. Holbuki, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitut-siyasining 37-moddasida respublikamizda majburiy mehnat taqiqlanganligining belgilab qo'yilganligi biroq ushub moddaning ijrosi bo'yicha 25 yil davomida hech qanday tadbir olib borilmaganligining tarixning o'zi ko'rsatib berdi.

Prezidentimiz faoliyatining dastlabki yillaridayoq, Konstitutsiyasining 37-moddasida belgilangan qoidaga qat'iy amal qilish uchun bir qator ishlar amalga oshirib, xususan, ta'sirchan parlament va jamoatchilik nazorat o'rnatildi hamda fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha Parlament komissiyasi tuzilib, deputat va senatorlardan iborat ishchi guruhlar respublikamizning barcha hududlariga chiqib, bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik bo'yicha parlament nazorati amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Bolalar mehnati va majburiy mehnat siyosati, O'zbekistonda uzoq vaqtlar davo-mida saqlanib qolinganligi, aslida uning kelib chiqish ildizlari sovet mustamlakachiligi davriga borib taqalib, kommunistuk tuzumning respublikada paxta yakkahokimligini o'rnatish ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi hech kimga sir emas albatta.

Respublikaning barcha aholi qatlamlari, jumladan, bolalar ham paxta yetish-tirish manfaatlariga bo'ysundirilgan bo'lib, Prezident ta'kidlaganidek, yaqin-yaqin-gacha har yili taxminan 6-7 million odam paxta yetishtirishga majburan safarbar etilar, yuz yil davomida o'zbek xalqi egilib, paxta terimiga majbur etildi, hatto maktab bolalari ham paxtaga haydaldi.

Yil davomida paxta maydonida o'quvchilarni ushlab turish ta'lim-tarbiya sifa-tiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazgan, ayniqsa paxtaga ishlov berish va hosilni yig'ib olishda yil davomida, bolalar maktab yuzini ko'rishmadi, Prezident Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "o'qituvchi bir oyda o'rtacha 80 soat dars o'tadigan bo'lsa, 4 oy davomida 320 soat dars yo'qotadigan vaziyat vujudga kelganligi, o'z navbatida o'quvchi bir oyda 136 soat saboq oladigan bo'lsa, 4 oyda 544 soat darsni boy berishga majbur bo'lganligi, boshqacha aytganda, o'quvchilarimiz maktabda 11 yil o'rniga majburiy mehnat tufayli, atigi 7 yil o'qiganligi" ta'lim jarayonini achinarli holatga olib kelib qo'yganligini kuzatish mumkin edi

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilib, o'zining istiqloq va taraqqiyot yo'li-ni qurishga kirishdi. Bu taraqqiyot yo'li xalqimizning farovon kelajagini ta'min-lamog'i va bolalarimizni shoduxurramlikda yurishini kafolatlamog'i kerak edi.

Sovet mustamlakachiligining barcha sirtmoqlaridan xalos bo'lgan O'zbekistonga birgina og'ir asorat, ya'ni majburiy mehnatni tugatish va bolalar mehnatiga barham berish muammosi amaliyotda boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

Farzandlar hali hamon majburiy mehnat zug'umlaridan xalos bo'lmayotgan edi. Yuqorida ta'kidlaganidek, Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 37-moddasida ko'rsatilgan majburiy mehnatni taqiqlan-ganligi haqidagi fikr qog'ozda qolib ketib, kommunistik tuzumdan meros bo'lib qolgan bu "og'ir tosh"ni yo'ldan olib tashlash masalasi 25 yil davomida xalqimizga yuk bo'lib kelayotgan edi.

Prezident Sh. M. Mirziyoyev faoliyatining ilk davridayoq bu "og'ir tosh"ni yo'ldan olib tashlashning uddasidan chiqdi hamda yurtimiz tarixining sahifalarida uzoq vaqtlar davomida ildiz otib, farzandlarimizni o'z domiga tortib turgan, majburiy mehnatning barcha shakllariga qarshi, o'zining strategik va qat'iyatli siyosati bilan kurash olib bordi va jahon hamjamiyati oldida O'zbekistonning yuzini yorug' qildi.

O'zbekiston farzandlarini o'qishga ta'lim-tarbiyaga yetaklovchi o'qituvchi larimizning jamiyatdagi mavqei oshirila boshlandi, jamiyatdagi barcha qatlamlar o'z vazifa-sini aralashuvlarsiz, erkin va xolisona amalga oshira boshladi.

Yangi O'zbekistonni qurish yo'lida bolalar kelajagi va taraqqiyoti uchun, xech qachon ularga majburiy mehnatning asoratlari soya solmasligi uchun, 2023 yilning 30 aprelida, xalqimizning hohish-irodasiga ko'ra, Yangi Konstitutsiya qabul qilinib, uning 44 moddasida "Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xafsizligiga, axloqi-ga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi" deb belgilab qo'yildi.

Xalqimiz tarixida bir asrdan beri og'riqqa aylangan bu muammo yana qayta yuzaga kelmasligi uchun, davlatimiz va keng jamoatchilik tomonidan huquqiy va ma'naviy kafolat sifatida, Konstitutsiyasiga zarhal harflar bilan yozib qo'yildi va tom ma'noda, O'zbekistonning eng yangi

tarixida sodir bo'lgan bu olamshumul yutuqda Prezident Sh. M. Mirziyovning o'rni va roli beqiyos bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida ja-miyatimiz, davlatimiz oldida Yangi O'zbekistonni qurish va uning amalga oshirish chora-tadbirlari hamda harakatlar strategiyasi ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich, uni amalga oshirish tadbirlari belgilab berildi.

Buning uchun asosiy e'tibor, davlatimizning ustivor vazifasiga aylangan, de-mokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquqlari va erkinlarini ta'minlash, fuqarolarning farovon yashashlarini ta'minlab berish, shuningdek, bu sohada o'z yechimini kutib yotgan muammolarni hal etish kerak edi.

Xalqimiz tarixidan chuqur o'rin olgan va uzoq vaqtlar davomida yechimi kutilayot-gan muammolaridan biri, yurtimizda majburiy mehnatni tugatish va bolalar mehna-tiga barham berishdek masalaga Prezident Sh. M. Mirziyoyev faol jamoatchilikning diqqatini qaratdi.

Prezidentimiz faoliyatining dastlabki yillaridayoq, Konstitutsiyasining 37-moddasida belgilangan qoidaga qat'iy amal qilish uchun bir qator ishlar amalga oshirib, xususan, ta'sirchan parlament va jamoatchilik nazorat o'rnatildi hamda fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha Parlament komissiyasi tuzilib, deputat va senatorlardan iborat ishchi guruhlar respublikamizning barcha hududlariga chiqib, bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik bo'yicha parlament nazorati amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Bolalar mehnati va majburiy mehnat siyosati, O'zbekistonda uzoq vaqtlar davomida saqlanib qolinganligi, aslida uning kelib chiqish ildizlari sovet mustamlakachiligi davriga borib taqalib, kommunistik tuzumning respublikada paxta yakkahokimligini o'rnatish ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi hech kimga sir emas albatta.

Yil davomida paxta maydonida o'quvchilarni ushlab turish ta'lim-tarbiya sifa-tiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazgan, ayniqsa paxtaga ishlov berish va hosilni yig'ib olishda yil davomida, bolalar maktab yuzini ko'rishmadi, Prezident Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "o'qituvchi bir oyda o'rtacha 80 soat dars o'tadigan bo'lsa, 4 oy davomida 320 soat dars yo'qotadigan vaziyat vujudga kelganligi, o'z navbatida o'quv-chi bir oyda 136 soat saboq oladigan bo'lsa, 4 oyda 544 soat darsni boy berishga maj-bur bo'lganligi, boshqacha aytganda, o'quvchilarimiz maktabda 11 yil o'rniga majburiy mehnat tufayli, atigi 7 yil o'qiganligi"ta'lim jarayonini achinarli holatga olib kelib qo'yganligini kuzatish mumkin edi va xalos bo'lgan O'zbekistonga birgina og'ir asorat, ya'ni majburiy mehnatni tugatish va bolalar mehnatiga barham berish muammosi amaliyotda boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

Farzandlar hali hamon majburiy mehnat zug'umlaridan xalos bo'lmayotgan edi. Yuqorida ta'kidlaganidek, Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida ko'rsatilgan majburiy mehnatni taqiqlan-ganligi haqidagi fikr qog'ozda qolib ketib, kommu-nistik tuzumdan

meros bo‘lib qolgan bu “og‘ir tosh”ni yo‘ldan olib tashlash masalasi 25 yil davomida xalqimizga yuk bo‘lib kelayotgan edi.

Prezident Sh. M. Mirziyoyev faoliyatining ilk davridayoq bu “og‘ir tosh”ni yo‘ldan olib tashlashning uddasidan chiqdi hamda yurtimiz tarixining sahifalarida uzoq vaqtlar davomida ildiz otib, farzandlarimizni o‘z domiga tortib turgan, majburiy mehnatning barcha shakllariga qarshi, o‘zining strategik va qat‘iyatli siyosati bilan kurash olib bordi va jahon hamjamiyati oldida O‘zbekistonning yuzini yorug‘ qildi.

O‘zbekiston farzandlarini o‘qishga ta‘lim-tarbiyaga yetaklovchi o‘qituvchilarimizning jamiyatdagi mavqei oshirila boshlandi, jamiyatdagi barcha qatlamlar o‘z vazifa-sini aralashuvlarsiz, erkin va xolisona amalga oshira boshladi.

Yangi O‘zbekistonni qurish yo‘lida bolalar kelajagi va taraqqiyoti uchun, xech qachon ularga majburiy mehnatning asoratlari soya solmasligi uchun, 2023 yilning 30 aprelida, xalqimizning hohish-irodasiga ko‘ra, Yangi Konstitutsiya qabul qilinib, uning 44 moddasida “Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xafsizligiga, axloqi-ga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta‘lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi” deb belgilab qo‘yildi.

Xalqimiz tarixida bir asrdan beri og‘riqqa aylangan bu muammo yana qayta yuzaga kelmasligi uchun, davlatimiz va keng jamoatchilik tomonidan huquqiy va ma‘naviy kafolat sifatida, Konstitutsiyasiga zarhal harflar bilan yozib qo‘yildi va tom ma‘noda, O‘zbekistonning eng yangi tarixida sodir bo‘lgan bu olamshumul yutuqda Prezident Sh. M. Mirziyovning o‘rni va roli beqiyos bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Res pub likasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda Konstitusiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha amaldagi tizimning samarasini oshirish maqsadida Konstitutsiyamizda bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslikka alohida e‘tibor qaratgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi 2008 yilda Xalqaro mehnat tashkilotining Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi va Jinoyat kodekslarida voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risidagi talablarni buzish, ya‘ni voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga yoki axloq- odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan ishlarda foydalanish uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlik choralari belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 44-moddasida “Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlani-shiga xavf soluvchi, shu

jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi", degan qat'iy norma mustahkamlanmoqda. Paxta dalalarida yoki boshqa qishloq xo'jaligi ishlarida, umuman, boshqa sohalarda ham bolalar mehnatidan foydalanish, ayniqsa, ularni jalb qilishning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha tizimli va qat'iy islohotlar natijasida O'zbekistonda bolalarning majburiy mehnati to'liq barham topdi.

2 millionga yaqin bolalar majburiy mehnatdan ozod qilindi. Endilikda bu boradagi davlat siyosatini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamlar tashlanmoqda. Konstitutsiyamizga ilk marotaba kiritilayotgan mazkur norma mamlakatimizda ushbu sohada erishilgan yutuqlarni qat'iy mustahkamlaydi hamda bolalar sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun muhim huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Ayni paytda, ushbu konstitutsiyaviy norma bolalarning sog'ligi, xavfsizligi, to'liq jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishiga tahdid solmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan tarzda mehnat qilishlariga to'sqinlik qilmaydi. Xususan, amaldagi Mehnat kodeksiga muvofiq mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'ligi, xavfsizligi, to'liq jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishiga tahdid solmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtda bajarishi uchun – ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Insoniyat tamaddunining rivojlanishi doimo insonlar ijodiy faoliyati natijasi o'laroq amalga oshgan. Barcha yangiliklar zamirida, avvalo, inson va uning aql-zakovati turganligi bois konstitutsiyalarda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratiladi. Amaldagi Konstitutsiyamizda asosiy e'tibor ilmiy, texnikaviy ijod masalalariga qaratilgan bo'lib, badiiy ijod masalasi e'tibordan chetda qolgan edi.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 53-moddasida badiiy ijod erkinligining kafolatlanishi belgilanmoqda. Adabiyot, san'at va madaniyatning jamiyat hayotidagi o'rni beqiyos bo'lib, faqat ular bilangina millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. Darhaqiqat, badiiy ijod yuqori ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bashariyat oldida paydo bo'layotgan, biz ilgari duch kelmagan g'oyat murakkab muammolarni bartaraf etishda, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ayniqsa, yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Shu nuqtai nazardan, Asosiy qonunimizda har bir shaxsga badiiy ijod erkinligining kafolatlanishi milliy adabiyot va san'atimizning yangi asarlar va nomlar bilan boyishiga, madaniyat va ma'naviyatimizni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur moddaga "intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi" degan yangi norma kiritilmoqda. Intellektual mulk

mahsuli bo'lgan raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar XXI asrda mamlakat iqtisodiyotini asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Bugungi kunda nomoddiy aktiv hisoblangan intellektual mulk kirib bormagan va ta'siriga uchra magan biror soha va tarmoq qolmadi.

Intellektual mulkni muhofaza qilish, avvalo, uni yaratuvchisi bo'lgan egasining barcha huquqlari tan olinishini, o'z manfaati yo'lida bemaol foydalanishini va turli tajovuzlardan himoya qilinishini anglatadi. Intellektual mulk ob'yekti egasi uni boshqa mol-mulki singari sotish, meros qilib qoldirish, sovg'a qilish, har qanday tarzda foydalanishga ruxsat berish yoki taqiqlash huquqiga ega. Bugungi kunda intellektual mulk yirik daromad manbai hisoblanadi. Masalan, Facebook ijtimoiy tarmog'i asoschisi Mark Sukerberg, Garri Potter haqidagi kitoblar muallifi Djoan Rouling intellektual mulkini tijoratlashtirishi orqali yirik kapital egalariга aylanishgan. Mazkur norma kiritilishi intellektual mulkning, boshqa ko'char va ko'chmas mol-mulk turlari kabi, Konstitutsiya darajasida himoyasini ta'minlaydi. Eng muhimi, intellektual mulk egalari – yozuvchi, shoir, rassom, san'atkorlar, olimlar, tadbirkorlik sub'yektlari va boshqalarni o'zlari yaratgan intellektual mulk natijasiga nisbatan huquqlarini kafolatlaydi.

Har kimga o'z huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning, mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Shuningdek, har bir shaxs O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq, o'z huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tomonidan himoya qilinishi uchun murojaat qilishga haqli ekanligi nazarda tutiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 55-moddasida “Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli”, degan norma mustahkamlanmoqda. Ushbu qoidaning mazmun- mohiyati shundaki, fuqarolar o'z buzilgan huquq va erkinliklarini, o'z galar huquqlarini buzmaganda, mustaqil himoya qilish huquqiga ega. Mazkur huquqni amalga oshirishning yagona sharti – bu fuqarolar tomonidan o'zini himoya qilishda qo'llaniladigan usullar yoki choralarning qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan bo'lishidir.

Masalan, Jinoyat-prosessual kodeksiga ko'ra, surishtiruvchi va tergovchi jinoiy ta'qib ostidagi shaxsning ayblovdan himoyalaniishi huquqini ta'minlash doirasida qonunda ko'zda tutilgan barcha usul va vositalardan foydalanishi uchun real imkoniyat yaratishi shart. Lekin aslida xalqaro standart mazmuniga binoan, shaxs o'zini qonunda taqiqlanmagan har qanday usul va vositalar orqali himoyalashi mumkin.

Ya'ni bunda “nimaiki qonun bilan taqiqlanmagan bo'lsa, bunga ruxsat berilgan” xalqaro qoidasi amal qiladi. Mazkur normaga o'xshash qoidalar Ruminiya, Indoneziya kabi davlatlar

konstitutsiyalarida ham o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bunday norma kiritilishi, o'z navbatida, buzilgan huquqni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday usullar bilan, o'zgalarning huquq va manfaatlariga daxl qilmagan holda himoya qilishni hamda har bir fuqaroning o'ziga tegishli bo'lgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqining kafolatlanishi odil sudlovning ajralmas elementi hisoblanadi.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 55-moddasida insonning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash huquqini samarali amalga oshirishga qaratilgan normalar mustahkamlanmoqda. Mazkur qoidalarning Asosiy qonunimizga kiritilishi nima beradi? Birinchidan, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanmoqda.

Agar normaning amaldagi tahriri faqat davlat organlari va jamoat tashkilotlarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishni nazarda tutsa, endilikda boshqa tashkilotlar, jumladan xususiy tashkilotlarni ham qamrab olmoqda. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlarning nafaqat g'ayriqonuniy xatti-harakatlari, balki g'ayriqonuniy qarorlari ustidan ham sudga shikoyat qilish imkoniyati berilmoqda. Ikkinchidan, har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqini kafolatlovchi norma belgilanmoqda.

Har qanday shaxs buzilgan huquqi yoki qonuniy manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda to'g'ridan- to'g'ri umumyurisdiksiya yoki ma'muriy sudga murojaat qilish huquqiga egaligining konstitutsiyaviy kafolatlanishi inson huquqlari himoyasini yanada kuchaytiradi. Ushbu himoyaning samaradorligini ta'minlash uchun esa sudlar shikoyatlarni qat'iy prosessual tartib-qoidalarga tayanib, oqilona muddatlarda, tenglik, tortishuv va adolat prinsiplari asosida ko'rib chiqishlari lozim.

Bunday normalar Italiya, Portugaliya, Serbiya kabi davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Mazkur normaga kiritilayotgan o'zgarishlar inson huquqlarini sud orqali himoya qilish doirasini kengaytirishga, nafaqat davlat organlari, balki boshqa xususiy tashkilotlar tomonidan inson huquqlarini buzish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarda shaxs huquq va erkinliklarining muhofaza etilishi huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. Shu maqsadda yangi tahrirdagi

Konstitutsiyamiz loyihasining 55-moddasida “Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega”, degan adolatli norma mustahkamlanmoqda.

Konstitutsiyamizga kiritilayotgan ushbu norma ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari tufayli shaxslarga moddiy va ma’naviy zarar yetkazilishi holatlari uchrab turadi. Masalan, davlat organlarining noqonuniy qarorlari sababli fuqarolarning uy-joylari va boshqa mulklarining asossiz buzilishi ularning haqli e’tiroziga sabab bo‘ladi.

Bunday sharoitda fuqaro yetkazilgan zararining o‘rni davlat tomonidan to‘liq qoplanishini talab qilish huquqiga ega. Shu bois amaliyotda sudlar tomonidan fuqarolarning foydasiga davlat organlarining qonunga zid bo‘lgan ko‘plab qarorlari bekor qilinib, yetkazilgan zarar qoplanmoqda. Birgina 2022 yilda 4645 ta davlat organlari qarorlari sud tomonidan haqi qiy emas, deb topilgan va yetkazilgan zarar undirilgan; ikkinchidan, davlat organlari yoki ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari yoki harakatsizligi tufayli fuqaroga yetkazilgan zararining o‘rni davlat tomonidan qoplanishi ta’minlanadi.

Masalan, amaliyotda surishtiruv yoki tergov jarayonida mansabdor shaxslar tomonidan fuqaroga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala natijasida uning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar ham davlat tomonidan qoplab beriladi. Shu bilan birga, davlat fuqaroga to‘lab berilgan mablag‘ni zarar yetkazgan mansabdor shaxsdan undirish choralarini ko‘radi. Shu kabi normalar Fransiya, Bolgariya, Vengriya kabi davlatlarning konstitutsiyalarida o‘rin olgan.

Ushbu normaning belgilanishi, birinchidan, davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan shaxslarga nisbatan g‘ayriqonuniy qaror yoki xatti-harakatlar sodir etilishining oldini oladi, ikkinchidan, shaxslarga yetkazilgan zararni o‘z vaqtida va to‘liq qoplab berilishini ta’minlaydi, uchinchidan, yetkazilgan zararni mansabdor shaxslar shaxsiy mablag‘i hisobidan qoplashiga majbur qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari va nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlariga oid qanday yangi normalar belgilanmoqda. Ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand aholini va nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular uchun to‘siqsiz muhit yaratish va jamiyatga integratsiyasini ta’minlash ijtimoiy davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalariga yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar, ijtimoiy

ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar hamda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar kiradi.

Shu bois BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi talablariga muvofiq, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 57-moddasida quyidagi qo'shimchalar kiritilmoqda: birinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilanmoqda.

Amaldagi Konstitutsiyamizda ushbu himoya faqat voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarga tatbiq etilar edi, endilikda ushbu ro'yxat kengaytirilmoqda; ikkinchidan, davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'radi, degan keng qamrovli norma kiritilmoqda.

Ushbu norma bilan aholining yuqoridagi toifalariga tegishincha imtiyozli uylar berish, bepul tibbiy jihozlar, protez-ortopediya buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, yetim bolalar uchun oliy ta'limda bepul o'qish imkoniyatini yaratish, pensiya va nafaqalar bilan ta'minlash, ijtimoiy xizmatlar turi va sifatini oshirish choralarni ko'rish davlatning konstitutsiyaviy majburiyatiga aylanmoqda; uchinchidan, davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalar ob'yektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi, degan insonparvar norma mustahkamlanmoqda.

Bu esa davlatga nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniyat markazlari, kino va konsert zallari, sirk, teatrlarga kirish, shuningdek davlat xizmatlari, tibbiy, ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda imtiyozlar, qulayliklar yaratish, ularni imtiyozli asosda ishga joylashish va ta'lim olishlari uchun tashkiliy-huquqiy choralarni ko'rish majburiyatini yuklamoqda. Pirovardida ijtimoiy ehtiyojmand aholi va nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam berish, hayotdan roziligini oshirishga xizmat qiladi.

**Tayanch so'z-iboralar:**Oila, ota-ona, farzand, bola huquqlari, yoshlar tadbirkorligi, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim va tarbiya, ma'naviyat. Ijtimoiy muhofaza, oilani qo'llab quvvatlash siyosati.

**Mavzu yuzasidan savol-javoblar:**

1. Oila tushunchasiga ta'rif bering?
2. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar konstitutsiyada qanday ifodalangan?

3. Bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qanday normalar belgilangan?
4. Onalik va bolalik siyosatining o'ziga xos jihatlarini aytib bering?
5. Yoshlarga e'tibor va davlat siyosatiga misollar keltiring?

*Foydalanilgan adabiyotlar:*

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O'zbekiston". 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*
4. *Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyat yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*

#### **14 mavzu: Ommaviy axborot vositalari**

##### **Mavzu rejasi:**

1. Ommaviy axborot vositalari tushunchasi.
2. Ommaviy axborot vositalarining erkinligi
3. Axborotning ishonchiligi va senzura yo'l qoyilmasligi
4. Axborot xavfsizligi va axborot asri

Mavzu bayoni:

O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 26 dekabrda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni misol bula oladi. qonunning 6-moddasida shunday deyiladi: "Ommaviy axborot vositalaridan O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitusiyaviy tuzumini, xududiy yaxlitligini zurlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish, urush va zuravonlikni, shafkatsizlikni, milliy, irqiy va diniy adovatni targib etish, davlat sirini yoki qonun bilan kuriklanadigan o'z ga sirni oshkor etish, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa xattixarakteratlarni sodir qilish maqsadida foydalanilishiga yo'l quyilmaydi. OAV faoliyatiga to'sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo'ladi

Avvalgi konstitusiyaning "Ommaviy axborot vositalari" nomli bobi bitta moddadan iborat edi. Unda shunday deyilgandi: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Syenzuraga yo'l qo'yilmaydi".

Yangi konstitusiyaga ko'ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo'ldi:

Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan

foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

Syenzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Taraqqiyotning "O'zbek modeli" – istiqlolning dastlabki yillarida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan islohotlar strategiya bo'lib, taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshidan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi.

Shu tariqa yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga keldi: Birinchi tamoyil: iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi; Ikkinchi tamoyil: davlat – bosh islohotchi; Uchinchi tamoyil: jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi;

To'rtinchi tamoyil: aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; Beshinchi tamoyil: bozor iqtisodiyotiga ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish. Tashabbus – lot. initsiativa initiative-tashabbus; qandaydir ishni boshlashga undash, ishbilarmonlik; muhokama qilish uchun takliflar berish.

Totalitar – lot. totalis-butun, to'la, bir butun); davlat hokimiyati organlari tomonidan jamiyat hayotining hamma sohalarini nazorat qiladigan davlat shakli, amalda konstitutsion huquq va erkinliklarni tugatilishi; bu rejimda davlat hokimiyati biron-bir guruh (siyosiy partiya) qo'lida to'planib, mamlakatda demokratik erkinliklar va siyosiy muholifatni amal qilishi uchun imkoniyatlar bo'lmaydi.

Transchegaraviy – chegaralararo, bir necha davlat hududidan o'tuvchi. Daryolar va yo'larga nisbatan qo'llaniladi.

**81-modda-** Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat Ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan fydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Asosiy yangilik – OAV faoliyatiga to'sqinlik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi. MJtK va Jinoyat kodekslariga tegishli javobgarlik kiritilishi haqida 4-5 yildan beri gapirib kelinadi, lekin ularning barchasi og'izda va qog'ozda qolib ketmoqda.

*Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin.*

Huquqlar cheklanishiga doir bu me'yorlar, yangi konstitusiyaning boshqa bir moddasiga asosan, so'z erkinligi huquqiga ham tegishli. Ya'ni axborot izlash, olish va tarqatish huquqi faqat konstitusiyaviy tuzumni, aholi sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va tartibini ta'minlash, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning oshkor etilishiga yo'l qo'yimaslik maqsadida cheklanishi mumkin.

Ta'kidlash lozim, "ijtimoiy axloq" tushunchasi O'zbekiston qonunchiligiga hali kiritilmagan. Ushbu tushuncha hamda mazkur modda bo'yicha inson huquqlari "jamoat tartibini ta'minlash maqsadida" cheklanishi bo'yicha vakolatli organning huquqiy sharhiga zarurat bor. Huquqlar ta'minlanishi bilan ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash o'rtasidagi oltin o'rtalik aniq belgilab qo'yilishi kerak. Shu bilan birga, yuqorida aytganimizdek, konstitusiyaga binoan endilikda barcha noaniqliklar inson foydasiga hal etiladi.

Shu o'rinda, namoyishlarga oid moddani ham eslatib o'tish o'rinli. Bu modda avvalgi holida, o'zgarishsiz saqlab qolindi:

*Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.*

*Tayanch so'z iboralar:* Ommaviy axborot vositalari, Ommaviy axborot vositalarining erkinligi, Axborotning ishonchiligi, senzura, axborot xavfsizligi, axborot asri, blogerlar, jurnalistlar, matbuot, televideniye.

*Mavzu yuzasidan savol-topshiriqlar:*

1. Ommaviy axborot vositalari tushunchasiga ta'rif bering?
2. Ommaviy axborot vositalarining erkinligiga nimalar tahdid solgani bo'lishi mumkin?
3. Axborotning ishonchiligi va senzura yo'l qoyilmasligi
4. Axborot asrida axborot xavfsizligini ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak bo'ladi?

***Foydalanigan adabiyotlar:***

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O'zbekiston". 2023.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.*

**15 mavzu: Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari**

***Mavzu rejasini:***

1. *xalq deputatlari kengashlari va ularning vakolatlari*
2. *viloyat, tuman va Shahar hokimlarining vakolatlari*
3. *mahalla raislari va ularning vakolatlari*

Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo'linish va hokimiyat bo'g'inlarining o'zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

Shunga muvofiq, quyidagi sanalardan boshlab, hokimlarning kengashlarda raislik qilishiga barham beriladi:

viloyatlarda va Toshkent shahrida 2024 yilgi deputatlik saylovlari yakunlari bo'yicha;  
tuman va shaharlarda 2026 yil 1 yanvardan boshlab;

Mahalliy kengashlar raislari kengash deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi. Hokimlar esa 5 yil muddatga tayinlanadi, tayinlangan hokimni kengashlar tasdiqlaydi. Shu tariqa, kengash raislari ham, hokimlar ham to'g'ridan to'g'ri aholi tomonidan saylanmaydi.

Kengashlarning vakolatlariga, jumladan, quyidagilar kiradi:

mahalliy byudjetni ko'rib chiqish va qabul qilish, uning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash;

hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish.

Hokimlarning vakolatlari esa, jumladan, quyidagilardan iborat bo'ladi:

konstitutsiya va qonunlarni, parlament palatalarining qarorlarini, prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari kengashlarining qarorlarini bajarish;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish.

Hokimlar va mahalliy kengashlarning faoliyatini tashkil etish tartibi bo'yicha alohida qonunlar qabul qilinadi. Mahalliy masalalar bo'yicha ularning vakolatlari qanday taqsimlanishi ana shu qonunlarda aks etadi.

Yuqoridagilardan tashqari, konstitutsiyaga boshqa ko'plab normalar ham qo'shilgan, jumladan:

O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanadi.

Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Har kim o'z shaxsiga doir noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Eslatib o'tamiz, prezident Shavkat Mirziyoyev konstitutsiya islohoti haqida 2021 yil 6 noyabr kuni, ikkinchi prezidentlik muddatiga kirishishi yuzasidan inauguratsiya marosimidagi nutqida birinchi marta aytib o'tgan edi. Davlat rahbari o'sha yili dekabr oyida, konstitutsiya bayrami arafasida xalqqa yo'llagan tabrigida: "konstitutsiyani yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o'ylash" zarurligini ta'kidlagan edi. 2022 yil may oyida konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, hujjatni yangilash jarayoni boshlandi.

Rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya qabul qilingan kun sifatida bundan keyin ham 1992 yil 8 dekabr sanasi e'tirof etiladi, 8 dekabr – bayram sanasi o'zgarmaydi.

Bizning fikrimizcha, bu fanni "konstitutsiyaviy huquq" deb nomlash to'g'rirokdir. Shuning uchun xam biz "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi" deb so'z yuritmokdamiz.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini urganishda kullaniladigan uslublar yigindisi ushbu ukuv kursining metodologiyasini tashkil etadi.

Har bir davlat o'zining betakror Konstitutsiyasiga egadir. Shu bilan birga barcha mamlakatlarning konstitutsiyasida bir kator umumiy jixatlar mavjud. Konstitutsiyaviy huquq tarkiban uch elementdan tashkil topgan: ***birinchidan***, konstitutsiyasiy normalar; ***ikkinchidan***, konstitutsiyasiy prinsiplar; ***uchinchidan***, konstitutsiyasiy institutlar;

Konstitutsiyaviy normalar-konstitutsiyaviy huquqning birlamchi asosini tashkil etadi. Konstitutsiyaviy normalarda huquq normasining uch qismi gipoteza, dispozisiya, sanksiya xar doim xam bulmasligi mumkin. Ko'pincha konstitutsiyaviy normalarda sanksiya kursatilmaydi. Konstitutsiyaviy norma faqat dispozisiyadan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, "Parlament-ikki palatadan iborat".

Konstitutsiyaviy huquq prinsiplari ichida huquqiy prinsiplar markaziy urinni egallaydi. Ko'pgina mamlakatlar konstitutsiyalarida qonun ustuvorligi, inson huquqlarining oliy kadriyat ekanligi, xokimiyat vakolatlarini taksimlash, davlatning dunyoviy sosial xarakteri kabi prinsiplar mustaxkamlangan.

Konstitusiyaviy normalar muayyan konstitusiyaviy institutlarni tashkil etadi. Konstitusiyaviy institutlarni ikki guruxga bo'lish mumkin: **birinchi guruh** inson huquqlari instituti;

**ikkinchi guruh** davlat xokimiyati instituti;

O'z navbatida bu ikki institut yanada kichikroq institutlarga bo'linadi. Masalan, inson huquqlari instituti, shaxsiy huquqlar instituti, siyosiy huquqdar instituti, iqtisodiy huquqlar instituti, madaniy huquqlar instituti, fuqarolar majburiyatlari institutlariga bo'linadi.

Davlat xokimiyati instituti esa, davlat boshlig'i instituti, parlament instituti, sud xokimiyati instituti, saylov huquqi instituti, prezidentlik instituti,

konstitusiyaviy nazorat instituti, ombudsman instituti kabilarga bo'linadi.

**Tayanch-so'z iboralar:** xalq deputatlari kengashlari, viloyat, tuman va Shahar hokimlari, mahalla raislari, mahalla yettiligi, oila-mahalla-jamiyat hamkorligi

**Mavzu yuzasidan savol-topshiriqlar**

1. xalq deputatlari kengashlari va ularning vakolatlarini sanab bering?
2. viloyat, tuman va Shahar hokimlarining vakolatlarini sanab bering?
3. Mahalla raislari va ularning vakolatlarini sanab bering?

**Foydalanigan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "O'zbekiston". 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyat yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI**  
**IXTISOSLASHTIRILGAN TA‘LIM MUASSASALARI AGENTLIGI**

**IS‘HOQXON IBRAT NOMIDAGI**  
**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**  
**GUMANITAR FANLAR VA JISMONIY TARBIYA KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”**  
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor  
\_\_\_\_\_ P. Lutfullayev  
«29» avgust 2025-yil

**“YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**KONSTITUTSIYASINI O‘RGANISH”**

**FANIDAN**

**O‘QUV DASTURI**

2025-2026-o‘quv yili kunduzgi ta‘lim shakli, 2-kurslar uchun

Ta‘lim yo‘nalishi: 60230800-Kompyuter lingvistikasi  
60230100-Filologiya va tillarni o‘qitish (koreys tili)  
60111800 -Tarjima nazariyasi va amaliyoti (Ingliz tili)

Namangan – 2025

Fan/modul kodi YTO'RKO'23410	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	ECTS - Kreditlar 4/6
Fan/modul turi tanlov	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
Fanning nomi	Auditoriya Mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Yangi taxrirdagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini o'rganish	60	60	120

## I. Fanning mazmuni

### *Fanni o'qitishning mazmuni:*

Fanning o'qitishdan maqsad- oliy ta'lim muassasalari talabalarida O'zbekiston Respublikasi yangi konstitutsiyasida mustahkamlangan muhim normalarga doir bilimlarini oshirish hamda amalda qo'llay olish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

### *Fanning vazifalari*

- Konstitutsiyaga yangi kiritilgan asosiy huquq va erkinlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish;
- Kiritilgan yangi normalarni sharhlay olish ko'nikmasini shakllantirish;  
Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**
- Konstitutsiyaga yangi kiritilgan asosiy huquq va erkinlarning mazmun-mohiyatini bilish;
- Kiritilgan yangi normalarni sharhlay olish ko'nikmasini **bilishi** kerak;

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

### **1-Mavzu: Konstitutsiya tarixi va jahon tajribasi**

Mavzu tarkibi: dunyo tarixida ilk qonunlarning paydo bo'lishi, AQShda birinchi Konstitutsiyaning vujudga kelishi, O'zbekistonda Konstitutsiyaning shakllanish bosqichlari

### **2-mavzu. Konstitutsiyaviy islohotlar hamda ularning mazmun-mohiyati**

(2 soat)

**Mavzu tarkibi:** Konstitutsiyaviy islohotlar mohiyati, ularning zarurati, Konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy yo'nalishlari, Konstitutsiyaviy islohotlardan ko'zlangan natijalar.

### **3 -mavzu. O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat (2 soat)**

**Mavzu tarkibi:** Suverenitet, demokratiya tushunchasi, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat belgilari hamda xususiyatlari, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida O'zbekiston Respublikasining huquq va majburiyatlari.

### **4-Mavzu: O'zbekiston tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlari (2-soat)**

**Mavzu tarkibi:** tashqi siyosat va uning mazmun mohiyati, O'zbekiston Respublikasida tashqi siyosat tamoyillari va unga amal qilishning huquqiy asoslari

### **5-mavzu. Insonning shaxsiy hamda siyosiy huquqlarini mustahkamlash masalalari**

(2 soat)

**Mavzu tarkibi:** Inson huquqlari tushunchasi, tasnifi, shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, inson huquq va erkinliklari kafolatlari.

### **6-mavzu. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari**

(2 soat)

**Mavzu tarkibi:** Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar tushunchasi va ularning shakllariga oid munosabatlar.

**7-Mavzu: Majburiy mehnat masalalari va bolalar mehnatini ta'qiqlash  
(2-soat)**

**Mavzu tarkibi:** majburiy mehnat tushunchasi, majburiy mehnatning oqibatlarini va uning oldini olish masalalari, bolalar mehnatini ta'qiqlash jarayonlari

**8-mavzu. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining madaniy va ekologik huquqlari  
(2 soat)**

**Mavzu tarkibi:** Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqni ta'minlash masalalari, fuqarolarning ta'lim olish huquqiga oid munosabatlar.

**9-mavzu. Inson hamda fuqorolarning huquq va erkinliklari kafolatlari (2 soat)**

**Mavzu tarkibi:** Inson huquq va erkinlarini ta'minash, himoya qilish usullari, buzilgan huquq va erkinliklarni tiklash, Inson huquq va erkinlarini ta'minash shakllari va vositalari.

**10-mavzu: Fuqorolarning burchlari (2 soat)**

**Mavzu tarkibi:** burch tushunchasi, konstitutsiyada belgilangan burchlarni bajarish, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni asrab-avaylash, harbiy xizmatni o'tash burchi.

**11-12-mavzu. O'zbekiston Konstitutsiyada davlat hokimiyatini amalga oshirishga doir normalar (4 soat)**

**Mavzu tarkibi:** O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati, ularning tarmoqlarga bo'linishi, davlat hokimiyatini tashkil etish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlari faoliyatiga doir o'zgarishlar.

**13-mavzu. Oila, bolalar va yoshlar (2 soat)**

**Mavzu tarkibi:** Oila tushunchasi, ota-onalar va farzandlar orasida huquqiy munosabatlar va uni himoyalash jarayonlari, onalik va bolalikni muhofaza qilish

**14 mavzu: Ommaviy axborot vositalari (2 soat)**

**Mavzu tarkibi:** Ommaviy axborot vositalari va uning vazifalari, axborot xavfsizligi, senzura yo'l qo'yilmaslik va uni oldini olish masalalari

**15-mavzu: Mahalliy o'zini-o'zi boshqirish organlari (2 soat)**

**Mavzu tarkibi:** viloyat, tuman va Shahar xalq deputatlari kengashlari faoliyati va uning huquqiy asoslari, mahalla tushunchasi va ular faoliyatini tashkil etish

### **III. Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg‘ulotlarida talabalar “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini o‘rganish” fanidan ma’ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminar mavzulari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘shimcha adabiyotlar va manbalar bilan tanishish orqali qo‘shimcha bilim oladilar. Natijada, ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini o‘rganish” fani bo‘yicha seminar mashg‘ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

- 1-mavzu: Konstitutsiya tarixi va jahon tajribasi.
